



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINHLIGIMIZ POSBONI!

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,  
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

# VATANPARVAR



*Amir Temur*  
tavalludining  
**690**  
yilligi



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,  
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING  
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN  
[WWW.MV-VATANPARVAR.UZ](http://WWW.MV-VATANPARVAR.UZ)

2026-YIL 10-APREL  
**№15 (3181)**



Amir Temur tavalludining 690 yilligi



# XALQARO ILMYIY-NAZARIY KONFERENSIYA: AMIR TEMURNING JAHON HARBIIY SAN'ATI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 6-fevralda qabul qilingan "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda tarixiy merosni chuqur o'rganish va targ'ib etish ishlarini yangi bosqichga olib chiqdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur qarorga muvofiq, har yili aprel oyini "Amir Temur oyligi" deb e'lon qilish, shuningdek 2030-yilgacha mo'ljallangan "yo'l xaritasi" doirasida keng qamrovli ilmiy-ma'rifiy loyihalarni amalga oshirish belgilangan.

Ana shu qaror ijrosi doirasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida buyuk sarkarda Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag'ishlangan "**Amir Temurning jahon harbiy san'atiga qo'shgan hissasi**" mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya bo'lib o'tdi.

Nufuzli anjumanda temurshunos olimlar, tadqiqotchilar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, xalqaro diplomatik korpus a'zolari, harbiy attashelar, shuningdek mamlakatimiz kuch tuzilmalari rahbarlari hamda Jamoatchilik kengashi a'zolari ishtirok etdi. Bu esa tadbirning keng qamrovli va xalqaro ahamiyatga ega ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Konferensiyani mudofaa vaziri general-leytenant Shuxrat Xalmuxamedov ochib berar ekan, o'z nutqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda barcha sohalar qatori mudofaa tizimida ham izchil islohotlar amalga oshirilayotgani, ushbu xalqaro konferensiya ham Amir Temur shaxsiyati, uning davlatchilik



va harbiy jang san'atidagi o'rni, Turon sivilizatsiyasi taraqqiyotida tutgan mavqeyi, temuriylar davridagi harbiy-siyosiy jarayonlarni chuqur ilmiy-nazariy tahlil va bahs-munozaralar asosida o'rganishga xizmat qilishini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Darhaqiqat, o'z sohasining fidoyilarini bir maydonga jamlagan mazkur xalqaro konferensiya olim va tarixchilar, soha vakillari o'rtasida samarali ilmiy muloqotni yo'lga qo'yib, ilg'or g'oyalar va zamonaviy tadqiqot natijalarini o'zaro almashish uchun muhim kommunikatsion platforma vazifasini o'tashi tashrif buyurgan mehmonlar tomonidan ham takror-takror e'tirof etildi. Anjuman materiallari, ilmiy ishlanmalar va asosli takliflar, shuningdek buyuk sarkarda Amir Temurning adolatli boshqaruvi va betakror harbiy san'atiga oid yangicha yondashuvlar kelgusida amaliyotga tatbiq etilishi, yosh avlod uchun esa mustahkam nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qilishi ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, anjumanda ma'ruza va chiqishlar bilan bir qatorda nufuzli mehmonlarning qutlov so'zlari ham yangradi. Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz direktori akademik Akmal Saidov, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Xalqaro

ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Ulug'bek Shermatov, tarix fanlari doktori, professor, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi rahbari Baxtiyor Hasanov va boshqalar so'zga chiqdi.

Ular o'z ma'ruzalarida sohibqiron Amir Temur davridan meros bo'lib kelayotgan

yuksak harbiy intizom, chuqur strategik tafakkur va mustahkam iroda kabi fazilatlar bugungi kunda milliy armiyamizni modernizatsiya qilishning muhim nazariy va amaliy asosi bo'lib xizmat qilayotganini alohida ta'kidladilar. Shuningdek, harbiy ta'lim va tayyorgarlik tizimida temuriylar davri harbiy san'ati hamda jang

Shu bilan birga, sohibqironning jang san'ati, strategik fikrlashi va harbiy boshqaruv uslublarini ilmiy jihatdan yangi rakurslarda talqin etdi.

Darvoqe, bugun jahongashta bobomizning ulkan merosi nafaqat harbiy xizmatchilar, balki o'sib kelayotgan yosh avlod uchun ham o'ziga xos jasorat maktabi vazifasini bajarmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan **"Temurbeklar maktabi"** harbiy akademik litseylari yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yuksak intizom va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu ta'lim muassasalari Qurolli Kuchlarimiz uchun bilimli, jasur va vatanparvar kadrlarni tayyorlashda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, o'zaro muloqotlarda mamlakatimiz mudofaa tizimida Amir Temur merosini amaliy jihatdan targ'ib etishga qaratilgan muhim tashabbuslar izchil yo'lga qo'yilgani alohida e'tirof etildi. Xususan, Mudofaa vazirligi tizimida 2021-yildan boshlab jangovar xizmat faoliyati va harbiy xizmatchilar kasbiy tayyorgarligi natijalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarga erishgan harbiy okrugni **"Amir Temur jangovar bayrog'i"** bilan taqdirlash tizimi joriy etildi. Mazkur nufuzli rag'bat qo'shinlarda milliy g'ururni yuksaltirish, jipslikni mustahkamlash va jangovar ruhni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Konferensiya davomida **"Amir Temur merosi – milliy armiyaning ma'naviy tayanichi"**, **"Amir Temurning jang san'ati"**, **"Temuriylar davrida ijtimoiy, madaniy va harbiy-siyosiy vaziyat"**, **"Amir Temurning qal'alarni egallash mahorati"** kabi o'nlab dolzarb mavzulardagi ma'ruzalar tinglandi. Ilmiy asoslangan chiqishlar, chuqur tahlillar va yangi yondashuvlar anjuman ishtirokchilari tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Ta'kidlash joizki, bunday xalqaro darajadagi anjumanlar Amir Temur merosini nafaqat nazariy jihatdan chuqur o'rganish, balki uni zamonaviy harbiy amaliyotga to'liq integratsiya qilish, milliy armiyamiz salohiyatini va harbiy tafakkurini yangi bosqichga ko'tarishda, muhim omil bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

**Kapitan  
Bobur ELMURODOV,  
"Vatanparvar"**



olib borish taktikalaridan unumli foydalanish Yangi O'zbekiston milliy armiyasini yanada rivojlantirishda muhim omil ekani ilmiy dalillar va chuqur tahlillar asosida yoritib berildi.


Konferensiyaning ikkinchi qismi ham Amir Temur shaxsiyati va uning betakror harbiy san'atiga bag'ishlangan dolzarb va mazmunli ma'ruzalarga boy tarzda davom etdi. Ilmiy muhokamalarda sohibqironning jahon harbiy tafakkuri taraqqiyotiga qo'shgan hissasi yangi yondashuvlar va manbalar asosida atroflicha tahlil qilindi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Dadaboyevning **"Amir Temurning jahon harbiy san'ati rivojiga qo'shgan ulushi"** mavzusidagi ma'ruzasi ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Olim o'z chiqishida atoqli sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning jahon harbiy san'ati rivojida tutgan o'rnini tarixiy manbalarga tayanib, aniq dalillar orqali yoritib berdi.

Kichik serjant Ixtiyorjon MAMAJONOV

Mardi maydonlar

# YAXSHI TAKTIKA – G'ALABA KALITI



**Jangovar tayyorgarlik oshishida amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy talablar asosida tashkil etish va muvofiqlashtirish orqali kutilgan natijaga erishiladi. Ana shu maqsadda Sharqiy harbiy okrugga qarashli dala-o'quv maydonlarida o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar harbiy xizmatchilarning bilim va salohiyatlarini yanada yuksaltirish, ko'nikmalarini mustahkamlash, o'zaro tajriba almashish va eng asosiysi, jang olib borishda yangi usul va uslublarni ishlab chiqib, uni amaliyotga tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.**

Aytish kerakki, so'nggi yillarda Mudofaa vazirligi tizimida olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar saflardagi har bir yurt o'g'lonini umumiy natijalarida o'z aksini topmoqda. Harbiy xizmatchilar berilgan vazifalarni istalgan vaqtda kutilganidan-da, a'lo darajada ado etayotgani esa ularning o'z kasbining chinakam egasi bo'lib shakllanayotganidan darak beradi.

– Bugun biz kasbimiz sirlarini chuqur o'rganmasak, kerakli bilimlarni egallamasak zamonadan ortda qolamiz, – deydi leytenant Nurmatov Eshpo'latov. – Shuning uchun ham safdoshlar bilan izlanishdan aslo to'xtamaymiz. To'g'ri, jangdagi harakatlar muhim taktikani yaxshi bilish – g'alaba kaliti. Ammo buning o'zi yetarli emas-da. Chunki intellektual salohiyatli, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatga ega, birdam, sadoqatli va eng asosiysi jangovar ruhga ega harbiy xizmatchini yengish qiyin bo'ladi. Tushunyapsizmi? Bu xislatlarni shakllantirish, yigitlarni ruhlantirish uchun ham, avvalo, komandir haqiqiy yetakchi bo'lishi shart. Aytmoqchimaniki, amaliy namuna bo'lishi kerak. Qisqasi, qo'shinlarimiz saflaridagi mardlarning mahoratini har soniya, har kun oshirishga e'tibor qaratilayotgani bugun o'z samarasini bermoqda.

Bugun jahonda va mintaqada sodir bo'layotgan qurolli to'qnashuvlarning aksariyati masofaviy, ha, aynan o'lsda turib nishonlarga zarba berish orqali qarshi tomonga talafotlar yetkazilmoqda. Demak, jang olib borish taktikalari keskin o'zgaryapti. Axborot texnologiyalari, dronlar va boshqa vositalarning imkoniyatlarini yaxshi bilgan tomonning qo'li baland kelayotgani ham ayni haqiqat. Shu

bois poligonlarda olib borilayotgan mashg'ulotlar davomida ayni yo'nalishdagi mutaxassislarni ham malakasini yanada oshirish, ularning kasbiy mahoratini mustahkamlashga ahamiyat qaratilmoqda.

– Bugun har qaysi davlat o'z harbiy xizmatchilarining jangovar shayligini yanada oshirish, topshirilgan vazifalarni bajarish ko'nikmalarini mustahkamlashga jiddiy e'tibor qaratmoqda, – deydi III darajali serjant Saidmurod Qulto'rayev. – Bu bejiz emas, albatta. Chunki yaxshi ko'nikmaga ega, o'ziga ishongan, mahoratini oshirib kelgan jangchi hech qachon murakkab vaziyatlarda shoshib qolmaydi, to'g'ri xulosa



chiqaradi va shu asosida g'alaba sari intiladi. Bugungi mashg'ulotlarda ham ayni jihatlar inobatga olindi. O'quvlarida jang olib borishning zamonaviy usul va uslublari tahlil etildi. Topshiriqlarni ado etish samaradorligiga ahamiyat qaratildi. Zamonaviy harakatlarni qo'llashga e'tibor qaratdik. Guruhdan tortib, batalyon tarkibigacha bo'lgan vazifalar qadamma-qadam bajarildi.



Natijalar o'rganildi, kamchiliklar yuzasidan aniq vazifalarni belgilab oldik. Bilsangiz, xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish keyingi g'alabani ta'minlaydi. Shunday qilib, mahorat maktabidagi har bir o'g'lon o'rganishi kerak bo'lgan bilimni har nafas takrorlaydi. Bu esa ularning qalbidagi haqiqiy ishq – Vatan himoyachisi bo'lishdek sharafiga munosib ekanliklariga debocha bo'lib xizmat qiladi.

O'zi umuman, har bir mashg'ulot – u guruh bilan bo'ladimi yoki batalyon tarkibida kechadimi bularning

o'tkazildi. Xususan, merganlar ishtirokidagi vazifalar ancha qizg'in kechdi. Bilasiz, jang maydonida merganlarning o'rni katta. Chunki ular dushmanning asosiy kuchiga mohirona zarba berish orqali safdoshlariga qulaylik yaratadi, muhofaza qilib, bo'linmani ko'zlangan manzilga betalafot yetib olishini ta'minlaydi. O'quvlar davomida mergan mutaxassislarning har qanday sharoitda qo'yilgan topshiriqni bajarish borasidagi ko'nikmalariga baho berildi. Lochin ko'zlar turli pozitsiyadan turib nishonlarni mo'ljalga oldi.



barchasi yagona maqsadga qaratiladi – shaxsiy tarkibning jangovar ruhini mustahkamlash va qaytmas bo'lib shakllanishi uchun. O'tkazilgan mazkur o'quvlarida ham xuddi shu tamoyilga amal qilindi.

Mashg'ulotlar bir vaqtning o'zida bir nechta hududlarda

Ha, o'quv-jangovar topshiriqni bajarish uchun harbiy xizmatchilarga puxta bilim, iroda va mahorat kerak. Bu sifatlar esa mana shunday izlanishlar natijasida shakllanadi. Xullas, jang olib borishda bunday yondashuvlar shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatini yanada mustahkamlab, nostandart vaziyatlarda qo'yilgan topshiriqni ado etish borasidagi harakatlarini yanada muvofiqlashtirishga xizmat qilishi aniq.

Zero yuksak dovonlarni ko'zlangan, peshqadamlar safida bo'lishni o'z oldiga qat'iy maqsad qilgan Vatan himoyachisi kasbiy malaka va mahoratini oshirishdan bizzumga bo'lsin to'xtamaydi. Yurt tinchligi uchun doimo bedor bo'ladi. Ko'nikmalarini oshirib borishga harakat qiladi.



Kapitan Drifjon MAMAJONOV

Kapitan Shohrux SAIDOV,  
"Vatanparvar"

Komandirlik san'ati

# YETAKCHI — YETAKLASHI KERAK

Jangda g'alaba taqdirini faqatgina qurol-yarog'ning zamonaviyligi yoki qo'llanilgan taktik harakat usullari emas, balki birinchi navbatda, inson omili, ya'ni askarning ruhiy holati va irodasi muhim rol o'ynagan. Buni jahon va mintaqada yuz bergan harbiy-siyosiy vaziyat, qurolli to'qnashuvlar misolida ham ko'rish mumkin.



Xo'sh, jangovar ruhning shakllanishi, uning jangchi xarakterida namoyon bo'lishi uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak? Mazkur maqolada ayni savolga javob izlaymiz.

Demak, jangovar ruh tushunchasi harbiy ilm-fan va psixologiyada asosiy o'rinda turadi. Shuningdek, u bevosita shaxsiy tarkibning o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani, hatto hayoti xavf ostida bo'lgan taqdirda ham, so'nggi tomchi qoni qolgungacha bajarishga bo'lgan ichki hissiy tayyorgarligi va qat'iyatini ifodalaydi. Yana bir gap: zamonaviy harbiy harakatlarning dinamik xususiyatlari, yuqori texnologik jihatlari va ko'p hollarda noaniq fe'l-atvori komandirdan nafaqat taktik bilim va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmasini, shu bilan birga, shaxsiy tarkibni g'alabaga ishonirishi kerak.

**Darvoqe, jangovar ruhning mustahkamligi bevosita ikkita o'zaro bog'liq omilga tayanadi:** komandirning liderlik sifatleri va bo'linma ichidagi jamoaviy ishonch muhiti. Shunday ekan, harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligini shakllantirishda mazkur omillarning o'rni va ahamiyati juda yuqori o'rinda turadi.

## JANGOVAR RUH – BU SHUNCHAKI JASORAT EMAS

Bilasizmi, jangovar ruh – bu shunchaki jasorat emas, balki murakkab psixologik tizim bo'lib, u bir nechta asosiy komponentlardan tashkil topadi. Harbiy psixologiyada ushbu tushunchaga shaxs va guruhning psixologik imkoniyatlarini birlashtiruvchi quvvat sifatida qaraladi.

Demak, ma'naviy-g'oyaviy komponent tushunchasi harbiy xizmatchida Vatanga sadoqat, qasamyodiga sodiqlik va bajarilayotgan vazifaning adolatli ekaniga bo'lgan ishonch turadi. Bu degani, askar **“Nima uchun jang qilyapman?”** degan muhim savolga aniq javob topsagina,

uning irodasi yengilmas, o'zi esa qaytmas bo'ladi. Shunday qilib, irodaviy komponent kishining o'z qo'rquvi, charchog'i va jismoniy og'riqlari ustidan g'alaba qozonishga olib keladi. To'g'ri, jangovar sharoitda, o'qlar yomg'iri ostida kechadigan instinktiv qo'rquv tabiiy hol, biroq yuqori jangovar ruh ushbu hisni jilovlash va maqsadga yo'naltirish imkonini beradi.

**Yana bir muhim jihat borki, bu jangchining xarakterida, jamoaviy birdamligida o'zini ko'rsatadi.** Ha, ijtimoiy-psixologik komponent. Bu bo'linma a'zolarining bir-biri bilan ruhiy jipslashuvi hisoblanadi. “Men” tuyg'usining “Biz” degan qarashga aylanishi – askarga chinakkam qo'shimcha kuch beradi. Natijada, safdoshining qo'llab-quvvatlashini sezgan harbiy xizmatchining chidamliligi yanada oshadi, g'alaba sari dadil qadam tashlay boshlaydi.

## KOMANDIR – RUHIY BARQARORLIK MANBAI

Harbiy sohada sardorlik tushunchasi oddiy boshqaruvdan tubdan farq qiladi. Komandir nafaqat buyruq beruvchi shaxs emas, aksincha o'z bo'ysunuvchilari uchun g'alaba va mag'lubiyat orasidagi yo'lda mayoq hisoblanadi.

**Bilsangiz kerak, harbiy liderlikning eng qadimgi va eng**

**samarali usuli – shaxsiy namuna bo'lish.** Tarixdagi buyuk sarkardalar – Amir Temur, Jaloliddin Manguberdil kabi siymolarning g'alabalari zamirida, ularning jang maydonida askarlar bilan birga kurashgani, har qanday sharoitda ham jangchilar safida yurib, zahmatni ham, g'alabani ham birga qarshi olgan. Aslida bu sarkardalarning haqiqiy qobiliyati, yetakchilik mahoratini amalda ko'rsatgan. Xo'sh, bugun-chi?

Zamonaviy jangovar harakatlar sharoitlarida komandirning qiyinchiliklarga bardoshliligi, yuqori harbiy intizomi va metin jasorati bo'linmaning jangovar ruhini belgilaydi. Agar komandir xavfli vaziyatda sovuqqonlikni saqlasa, bu hissiyot zanjirsimon reaksiya orqali barcha shaxsiy tarkib qalbiga bog'lanadi, ko'ksini shukuh bilan to'ldiradi. Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida ulg'aytiradi.

## YETAKCHINING JANGOVAR NUTQI QANDAY BO'LADI?

Yuqori stress va xavf sharoitida inson ongi va organizmi chegaraviy holatda ishlaydi. Bunday paytda oddiy boshqaruv usullari samara bermasligi mumkin. Xo'sh, bunday vaziyatda nima qilinadi? Demak, jang sharoitida komandirning eng muhim vazifasi – yuzaga keladigan vahimaning oldini olish. Chunki vahima – jangovar ruhning asosiy

kushandasi hisoblanadi. Ishonchli komandir o'z ovozi, harakati va qarorlari bilan bo'linmaga xotirjamlikni qaytara oladi. Bu yerda yetakchining o'ziga ishonchi jamoaga o'tadi va ularning ichki resurslarini safarbar qiladi.

**Yana bir gap.** Jangovar vaziyatda, ayniqsa komandirning nutqi katta ahamiyatga ega. Qisqa, lo'nda va ruhlantiruvchi buyruqlar askarda irodaviy kuchni uyg'otadi. Bu nafaqat taktik ko'rsatma, balki katta ruhiy daldadir. Lider komandir har bir askarning hissasini e'tirof etishi, jamoaviy ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, **jangovar ruh – bu matematik formulalar bilan hisoblab bo'lmaydigan, biroq har qanday armiyaning zarbdor kuchini belgilovchi asosiy omil.** Yuqori jangovar ruhni shakllantirishda liderlik va jamoaviy ishonch ajralmas, ha, yagona tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda, zamonaviy harbiy kadrlarni tayyorlashda nafaqat texnik va taktik bilimlarga, balki psixologik tayyorgarlik, yetaklash san'ati va jamoani jipslashtirish ko'nikmalariga ham alohida urg'u berish lozim. **Faqatgina o'z komandiriga va yonidagi safdoshiga cheksiz ishongan askargina eng murakkab sharoitlarda ham g'alabaga erisha oladi.**

Demak, o'zaro ishonch armiyaning ma'naviy qudratini ta'minlaydi va Vatan himoyasi yo'lidagi muqaddas burchni yuksak saviyada bajarishga zamin yaratadi.

**Podpolkovnik  
Farrux UMMATQULOV,  
Harbiy xavfsizlik va  
mudofaa universiteti katta  
o'qituvchisi, h.f.f.d. (PhD)**



Poydevor

# MASOFAVIY O'QISH, YUKSALISH IMKONIYATI, UNVON VA KARYERA...

## MUDDATLI HARBIY XIZMATCHILAR UCHUN YANGI IMTIYOZLAR

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ularning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi, yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishi hamda bandligini ta'minlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir yigit-qizning salohiyati va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilanmoqda.



Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev tomonidan joriy yil 13-yanvar kuni o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida yoshlarning qalbida harbiy-vatanparvarlik ruhini kuchaytirish, harbiy xizmat nufuzini yanada oshirish, ularda mas'uliyat, intizom va fuqarolik burchiga sadoqat kabi fazilatlarini kamol toptirish bo'yicha qator muhim topshiriqlar berilgandi.

Ushbu ustuvor vazifalarning mantiqiy davomi sifatida, 6-aprel kuni Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va harbiy xizmatchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi. Mazkur yig'ilishda armiya safida xizmat qilayotgan yoshlarga yaratilayotgan sharoitlarni yanada takomillashtirish, ularning kasbiy va ma'naviy tayyorgarligini yuksaltirish, harbiy sohani modernizatsiya qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Shuningdek, yig'ilishda muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarni kasbga o'rgatish va sifatli ta'lim olishlari uchun sharoit yaratish hamda armiyada kitobxonlikni ommalashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar ko'rib chiqildi.

Jumladan, 2026/2027-o'quv yilidan boshlab, mamlakatimizda muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan yoshlar uchun mutlaqo yangi imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Bu islohotlar armiya safiga chaqirilgan har bir yigitning nafaqat Vatan himoyasida munosib xizmat qilishini, balki kelgusida raqobatbardosh mutaxassis sifatida jamiyatga qaytib, o'zi uchun mustahkam poydevor yaratishini ta'minlashga qaratilgan.

Endi askarlar harbiy xizmat davridayoq oliygohlarga o'qishga topshirib, masofaviy ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi. Harbiy qismlarda ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda maxsus tayyorlov kurslari tashkil etilib,

abituriyentlarga o'z vaqtida va sifatli bilim berish tizimi yo'lga qo'yiladi. Bu esa yoshlarga bir vaqtning o'zida xizmatini sidqidildan ado etish va oliy ta'limga kirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, shartnoma asosida o'qishga qabul qilingan askarlarga davlat tomonidan foizsiz imtiyozli kreditlar ajratilishi ularning moddiy yukini yengillashtirib, ta'lim olishini yanada osonlashtiradi. E'tiborlisi, oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan askarlar harbiy fakultet talabalariga tenglashtirilib, o'qishni muvaffaqiyatli tamomlagandan so'ng zaxiradagi leytenant harbiy unvoni berilishi belgilanmoqda. Bu esa yoshlar uchun xizmatdan keyingi faoliyatida katta eshiklarni ochadi, kelajakdagi karyerasida muhim ustunlik beradi.

Xizmat davomida o'zini ko'rsata olgan, respublika va xalqaro sport musobaqalarida, fan olimpiadalarida birinchi o'rinni egallagan askarlarni test sinovlarisiz o'qishga qabul qilish tartibi belgilanmoqda.

Shuningdek, harbiy xizmat davomida "Bitta askar - bitta kasb" tamoyili asosida 3-6 oylik o'quv kurslari tashkil etilib, ishtirokchilarga davlat namunasidagi maxsus sertifikat topshiriladi. Bu sertifikat askarlar kelajakda o'z kasbini tanlash yoki mehnat bozorida munosib o'rin egallashida katta ahamiyat kasb etadi. Ya'ni harbiy xizmat endi faqat xizmat davri emas, balki yoshlarning kasbiy o'sish, yangi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish davriga aylanmoqda.

Bundan tashqari, muddatli harbiy xizmatni ado etib, uyiga qaytgan yoshlar uchun davlat tomonidan yana bir muhim imkoniyat yaratilmoqda. Endi xususiy sektorda ish boshlashni rejalashtirayotgan, lekin bu yo'lda zarur kasb va malakaga ega bo'lishni istagan yoshlarning o'qish xarajatlarini vaucher asosida to'liq Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi tomonidan qoplab beriladi. Bu tizim xizmatdan qaytgan yigitlarga orzu qilgan sohasi bo'yicha o'qish, malaka oshirish va tezroq ish bozoriga kirib borish imkonini beradi.

Shu tariqa har bir yosh o'zining yangi hayot bosqichida qo'shimcha moddiy yuklamasiz, ham vaqt, ham moliya jihatidan qulay sharoitda o'z kasbga ega bo'ladi.

Davlat xizmatini tanlamoqchi bo'lgan yigitlar uchun ham salmoqli imtiyozlar joriy etilmoqda. Davlat tashkilotlarida ishga kirish istagida bo'lgan yoshlarga Boshqaruv samaradorligi agentligi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlarida 10 foizlik qo'shimcha imtiyoz ballari beriladi. Bu, avvalo, harbiy xizmatda mas'uliyat va intizomni namoyon etgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyatiga keng yo'l ochib berishga xizmat qiladi. Ya'ni endilikda xizmatini sharaf bilan ado etgan har bir yosh davlat idoralariidagi ochiq tanlovlarda ustunlikka ega bo'ladi.

Yig'ilishda harbiy xizmatchilarning ma'naviy olamini boyitish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalasi ham alohida ko'rib chiqildi. Armiyada kitob o'qishga rag'batni oshirish, harbiy qismlarda zamonaviy kutubxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish, askarlarning mustaqil fikrlashi, dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi.

Xususan, joriy yildan boshlab, har yili Qurolli Kuchlarning barcha toifadagi harbiy xizmatchilari o'rtasida to'rt bosqichli "Ma'naviyat qalqoni" respublika kitobxonlik tanlovi o'tkaziladigan bo'ldi. Mazkur tanlov nafaqat harbiy xizmatchilarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, balki ularning ma'naviy dunyoqarashini yanada boyitish, fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Tanlovning birinchi bosqichi harbiy qism va harbiy ta'lim muassasalarida o'tkazilib, unda harbiy xizmatchilarning kitob mutolaasi, badiiy asarlarni tahlil qila olish qobiliyati baholanadi.

Ikkinchi bosqich harbiy okrug, birlashma va qo'shilmalar darajasida

o'tkazilib, avvalgi bosqichlarda faollik ko'rsatgan nomzodlar o'zaro bellashadi. Bu bosqichda ishtirokchilarning ijodiy fikrlashi, asarlar mazmunini chuqur anglashi, tahliliy savollarga javob berish mahorati sinovdan o'tkaziladi.

Uchinchi bosqich esa Qurolli Kuchlar tarkibidagi vazirlik va idoralarda amalga oshirilib, bunda har bir soha va tizim bo'yicha eng kuchli kitobxon harbiy xizmatchilar aniqlanadi. Ushbu bosqich tanlovning eng muhim bo'lgan bosqichlaridan biri bo'lib, ishtirokchilarning ma'naviy saviyasi, nutq madaniyati, intellektual imkoniyatlari kompleks baholanadi.

Eng so'nggi respublika bosqichida esa barcha saralash bosqichlaridan o'tgan eng kuchli kitobxonlar o'zaro bellashadi. Bu bosqich tom ma'noda ma'naviyat bayramiga aylanib, harbiy xizmatchilar o'rtasida mualliflar hayoti, milliy va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari haqida qizg'in bellashuvlar o'tkaziladi.

Yakuniy bosqichning g'olibi bo'lgan 4 nafar harbiy xizmatchi Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining bosh sovrini - zamonaviy elektromobil va diplom bilan taqdirlanadi. Shuningdek, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan harbiy xizmatchilarga pul mukofotlari, diplomlar va qimmatbaho esdalik sovg'alar topshirilishi belgilandi.

Amalga oshirilayotgan bunday tashabbuslar mamlakatimizda harbiy xizmatchining nafaqat jismoniy, balki ma'naviy yetuk inson sifatida kamol topishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, mazkur islohotlar harbiy xizmatni yoshlar uchun ulkan imkoniyat va istiqbollarni manbaiga aylantirib, ularning ta'lim olish, kasb egallash, mutaxassis sifatida shakllanish va hayotda o'z o'rnini topishga yordam beradi.

**Leytenant  
Mansurbek JABBOROV,  
"Vatanparvar"**



Suratlar tahririyat arxividan olindi

# SOHIBQIRON RUHIDA: TARIXDAN BUGUNGI HARBIY XIZMATGACHA

## SOHIBQIRON – TARIX VA BUGUN ORASIDAGI KO'PRIK

690 yil oldin dunyoga kelgan Amir Temur tarix sahifalarida nafaqat buyuk sarkarda sifatida, balki strategik tafakkur, ilm-fan va madaniyatni uyg'unlashtirgan yirik davlat arbobi sifatida qolgan. Har bir qaror, har bir yurish Temurning uzoq ko'rgan fikri va qat'iyatini namoyon etadi.

Temur hayotining eng muhim saboqlaridan biri shuki, kuch faqat qurol bilan emas, bilim, adolat va strategik tafakkur bilan ham mustahkamlanadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Temur merosi bugungi avlod, xususan harbiylar uchun beqiyos ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

## TARIXIY BARQARORLIK VA BOSHQARUV TAMOYILLARI

Temur davrida Markaziy Osiyo hududi siyosiy parokandalik va ichki nizolar bilan to'lib-toshgan edi. Shu murakkab sharoitda Temur kuchli markazlashgan davlat barpo etdi va **davlat boshqaruvining o'ziga xos tamoyillarini yaratdi**:

- qat'iy intizom va tartib;
- adolatli hukmronlik;
- markaziy hokimiyatning ustuvorligi;
- mahalliy boshqaruv tizimlarini uyg'unlashtirish.

Bugungi Qurolli Kuchlar tizimida ham shunday prinsiplar ustuvor hisoblanadi. Harbiy xizmatchilar sohibqiron tajribasini o'rganib, nafaqat jangovar tayyorgarlik, balki intizom va liderlik qobiliyatlarini shakllantiradi.

## SOHIBQIRON VA HARBIY PEDAGOGIKA

Temur harbiy yurishlarini amalga oshirishdan oldin qo'shinlarining jangovar tayyorgarligini, hududiy sharoit va raqib kuchlarini chuqur tahlil qilgan. Shu uslub bugungi harbiy pedagogika uchun ham o'rnak bo'la oladi. Har bir muddatli harbiy va professional harbiy xizmatchi sohibqiron ruhida intizom, strategik fikrlash va jasoratni o'zida mujassamlashtiradi.

**Qo'shimcha fakt:** Temurning harbiy yurishlarida qo'shinlarni tezkor ko'chirish, razvedka va logistika tizimini puxta tashkil etish bugungi zamonaviy harbiy operatsiyalar bilan uyg'un keladi.

## HOZIRGI HARBIY XIZMAT – SOHIBQIRON MAKTABI

Bugungi harbiy xizmat, xususan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlar uchun sohibqiron qadriyatlarini bilan uyg'unlashtirilgan maktabdir.

**Har bir askar nafaqat Vatan himoyasiga tayyorlanadi, balki milliy g'urur, jasorat va sadoqat ruhida tarbiyalanadi:**

- Vatanga sadoqat eng oliy qadriyatdir;
- intizom va birdamlik fidoyilikning asosidir;
- strategik tafakkur muvaffaqiyat kalitidir.



Suratlar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Tantanalik kuzatish marosimlari, mashg'ulotlar va saf parادلari harbiy ruhni mustahkamlaydi va yoshlarni sohibqiron qadriyatlarini bilan uyg'unlashtiradi.

## SOHIBQIRON TAJRIBASI ZAMONAVIY HARBIYLAR UCHUN

Temur harbiy yurishlarini chuqur tahlil bilan amalga oshirgan. **Har bir qaror:**

- raqib kuchlari va strategiyasini hisobga olish;
- hududiy va logistika imkoniyatlarini tahlil qilish;
- minimal yo'qotish bilan maksimal natijaga erishish.

Bugungi harbiy xizmatchilar ham shu prinsiplarni o'z xizmatida qo'llaydi. Har bir askar sohibqiron ruhini o'zida mujassam etib, Vatan sha'nini himoya qilishga intiladi.

## ZAMONAVIY HARBIY MASHG'ULOTLAR VA SOHIBQIRON RUHI

Mudofaa vazirligi okruglarida o'tkazilayotgan mashg'ulotlar sohibqiron strategiyasidan ilhomlangan. Masalan, tezkor harakat, razvedka mashqlari va jamoaviy manyovrlar Temurning yurishlarida qo'llagan taktikalarga o'xshaydi. Shu bilan harbiy xizmatchilar tarixiy merosni amaliyotga tatbiq etadi.

## AMIR TEMUR JANGOVAR BAYROG'I – RAMZ VA SHARAF

O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan har ikki yilda Mudofaa vazirligi okruglari o'rtasida eng ilg'or okrugga beriladigan Amir Temur jangovar bayrog'i nafaqat ramz, balki harbiy tayyorgarlik va jasoratni mustahkamlash vositasidir:

- fidoyilik va jasoratni oshiradi;
- jamoaviy birdamlik va intizomni kuchaytiradi;
- sohibqiron merosi bilan askarlarni bog'laydi.

Bayrog' harbiy ruhni uyg'otadi va askarlarni milliy tarix bilan uyg'unlashtiradi. Shu tariqa sohibqiron merosi nafaqat tarixiy yodgorlik, balki zamonaviy harbiy xizmatning ruhiy va ma'naviy poydevoriga aylanadi.

Amir Temur jangovar bayrog'i ostida xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilar tarixiy merosga ulanish bilan birga fidoyilik, jasorat va jamoaviy ruhni kuchaytiradi. Shu bilan harbiy xizmat sohibqiron qadriyatlarini bilan uyg'unlashadi.

**Qo'shimcha fakt:** bayrog' ostidagi marosimlar askarlarga nafaqat sharaflar, balki o'zining eng yuqori malaka va intizom ko'rsatish imkoniyatini ham beradi. Bu an'ana harbiy ruhni yanada mustahkamlaydi.

## ILM-FAN VA MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

Temur nafaqat sarkarda, balki ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish tarafdori edi. Samarqand uning tashabbusi bilan ilmiy va madaniy markazga aylangan. Shu orqali Temur faqat jang maydonida emas, balki ruhiy va madaniy maydonda ham avlodga ibrat qoldirdi.

**Bugungi harbiy xizmatchilar sohibqiron merosi orqali anglaydi:** kuch faqat qurol bilan emas, bilim, strategik tafakkur va jamoaviy ruh bilan oshiriladi.

## SOHIBQIRON MEROSI VA YOSHLAR TARBIYASI

Har bir muddatli harbiy va professional harbiy xizmatchi sohibqiron siymosi orqali o'rganadi:

- vatanparvarlik va fidoyilik;
- intizom va jasorat;
- strategik tafakkur va jamoaviy birdamlik.

## ZAMONAVIY HARBIY XIZMAT VA TARIX SABOQLARI

Mudofaa vazirligi tomonidan olib borilayotgan zamonaviy harbiy tayyorgarlik, jangovar mashg'ulotlar va strategik o'quvlar sohibqiron merosiga asoslangan. Har bir okrug va harbiy bo'linma sohibqiron jangovar taktikalari va intizom prinsiplarini amaliyotda qo'llaydi.

## XULOSA: TARIXDAN KELAJAKKA

690 yillik sana bizga yana bir haqiqatni eslatadi: tarixiy siymolar merosi faqat o'tmishda qolmasligi, balki bugungi harbiylar va jamiyat tomonidan hayotga tatbiq etilishi zarur. Sohibqiron merosi askarlarga fidoyilik, jasorat va Vatan sha'nini himoya qilish ramzi bo'lib xizmat qiladi.

**Amir Temur jangovar bayrog'i ostida xizmat qiluvchi har bir askar tarix saboqlarini o'zida mujassam etib, kelajakni barqaror va mustahkam qurishga hissa qo'shadi.** Shu tariqa sohibqiron ruhida tarbiyalangan harbiy kuch millat kelajagi va Vatan tinchligining kafolatidir.

**Parvina ABDUHAMIDOVA,**  
Markaziy harbiy okrug  
matbuot xizmati bosh mutaxassisi

Xalqaro fan olimpiadasi

# YUKSAK BILIM – YUKSAK NATIJA

Bugungi kunda ilm-fan sohasidagi xalqaro hamkorlik va yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan tashabbuslar har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, harbiy ta'lim muassasalarida bilim olayotgan yoshlar o'rtasida o'tkazilayotgan fan olimpiadalari nafaqat fanga qiziqishni oshiradi, balki ularning tahlil qilish, tez qaror qabul qilish va strategik fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Mana shunday xalqaro olimpiadalardan biri joriy yilning 23–27-mart kunlari Rossiya Federatsiyasining Tver shahridagi Suvorov nomidagi harbiy bilim yurtida bo'lib o'tdi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarning 30 dan ortiq jamoasi ushbu ta'lim maskanida to'planib, matematikaning murakkab qoidalari, mantiqiy masalalari va strategik hisob-kitoblarda o'z bilim va mahoratlarini sinovdan o'tkazdi. Bellashuv har bir ishtirokchi uchun bilimni namoyish etish, irodani mustahkamlash va yuksak maqsad sari intilish imkonini yaratdi.

Mazkur nufuzli musobaqada yurtimiz sharafiga Mudofaa vazirligiga qarashli Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi jamoasi munosib himoya qilib, umumjamoaviy hisobda faxrli ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Ushbu yutuq litsey o'qituvchilari mehnati, o'quvchilarning izlanishi, intizomi va tinimsiz mehnatining yorqin natijasidir. Olimpiadaning oliy pog'onasi Rossiya Federatsiyasi jamoasiga nasib etgan bo'lsa, Belarus Respublikasi uchinchi o'rinni egalladi.

Shuningdek, tadbir doirasida sport yo'nalishlari bo'yicha ham bir qator musobaqalar tashkil etildi.



kompetensiyalarni o'zlashtirish borasida qo'lga kiritilgan muhim qadamlardan biridir. Bu esa yoshlarning kelgusi faoliyatida IT sohasida ham, harbiy sohada ham zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish imkonini beradi.

Shu bilan birga, har juma kuni litseyda milliy libos kiyish an'anasi yo'lga qo'yilgani ham bejiz emas. Bu nafaqat yoshlar qalbida milliy qadriyatlarga hurmat, balki an'analarga sadoqat va o'zligini anglash hissini mustahkamlovchi muhim tarbiyaviy omil hisoblanadi. Milliy ruh



bilim maydonida ham raqobatbardosh bo'lishini ta'minlamoqda. Chet tillarni bilgan har bir yosh dunyo tajribasidan bahramand bo'lib, o'zining intellektual imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.



Litsey o'quvchilari jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ham o'zlarini ko'rsatib, munosib ishtirok etdi. Bu esa ularning nafaqat intellektual, balki jismoniy hamda ma'naviy jihatdan barkamol avlod sifatida shakllanayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur yutuq bevosita yurtimizda ta'lim, sport va yoshlar siyosati yo'nalishida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlarning yorqin namunasi ekanidan dalolat beradi. Ta'lim sohasidagi har bir yangilanish, joriy etilayotgan zamonaviy loyihalar yoshlarimizning dunyoqarashi, intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, litseyda amalga oshirilayotgan "Besh million dasturchi" loyihasi bugungi raqamli dunyo talablariga to'liq javob beradigan bilimlarni shakllantirmoqda. O'qituvchilarning 100 foizi, o'quvchilarning esa 80 foizi sertifikatga ega bo'lgani ta'lim muassasasida raqamli



bilan yo'g'rilgan ta'lim esa yurt posbonlari bo'lib yetishadigan yoshlarda faxr va mas'uliyatni shakllantiradi.

Har oy o'quvchilarning bilim darajasi va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha o'tkazilayotgan tanqidiy tahlillar esa ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish va har bir o'quvchining salohiyatini ochib berishga xizmat qilmoqda. Bu tizimli yondashuv natijasida litseyda boshqaruv samaradorligi oshib, o'quvchilarning faolligi va intizomi mustahkamlanmoqda.

Bundan tashqari, chet tillarni o'rganishga berilgan e'tibor ham o'z samarasini bera boshlagan. O'quvchilarning milliy va xalqaro til sertifikatlarini qo'lga kiritayotgani ularning global



Darhaqiqat, erishilgan muvaffaqiyatlar avvalo o'quvchilarning tirishqoqligi, ustozlarning fidokorona mehnati, ota-onalarning ishonchi va davlatimiz tomonidan ta'limga berilayotgan yuksak e'tibor natijasidir. Ilm – insonni yuksaltiradigan, jamiyatni taraqqiy ettiradigan buyuk kuch. Buyuk allomamiz Muhammad al-Xorazmiy asos solgan ilmiy meros bugun ham o'z qiymatini yo'qotmasdan, yoshlarni yangilikka, kashfiyotga, izlanishga chorlamoqda.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy bilim ega, jismonan baquvvat, ma'nan yetuk, Vatanga sadoqatli yoshlar bugungi kundagi eng katta boylik, ertangi kunimizning eng ishonchli tayanchidir. Ularning har bir yutug'i yurt ravnaqi yo'lida qo'yilgan muhim qadamdir.

**Iroda RAHIMOVA,**  
Jaloliddin Manguberdi nomidagi  
harbiy akademik litsey o'qituvchisi



Ko'nikma

# O'QUVCHI-YOSHLAR DALA-O'QUV MAYDONIDA

**Mudofaa vazirligi tasarrufidagi Uchquduq tumanida joylashgan harbiy qism dala-o'quv maydonida umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari ishtirokida amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi.**

Mazkur mashg'ulot yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda Vatanga sadoqat, intizom va mas'uliyat tuyg'ularini mustahkamlash, shuningdek nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish maqsadida o'tkazildi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchi-yoshlar harbiy xizmatchilar tomonidan maxsus tayyorlangan bir nechta o'quv nuqtalarida zamonaviy jangovar qurollar, harbiy texnikalar,



ularning texnik imkoniyatlari hamda qo'llash tartibi haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Shuningdek, o'quvchilarga qurollarni xavfsiz ushlab, ularni noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish tartibi amaliy tarzda ko'rsatib berildi. Har bir ishtirokchi ushbu jarayonda bevosita qatnashib, qurol bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamladi.

Shu kuni yoshlar ilk bor amaliy o'q otish mashqlarini bajardi. Ya'ni ular belgilangan xavfsizlik qoidalari asosida 100 metr uzoqlikdagi nishonlarga qarata o'q uzib, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan olgan nazariy

bilimlarini amalda sinab ko'rdi. Ko'pchilik o'quvchilar nishonlarni aniq urib, o'zlarining qiziqishi va tayyorgarligini namoyon etdi.

Bunday amaliy mashg'ulotlar yoshlarning harbiy sohaga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularda jasorat, chidamlilik va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbir yakunida o'quvchilar harbiy xizmat sharaflari va mas'uliyatli burch ekanini yanada chuqurroq his etdi.



Vatanparvarlik saboqlari

## HAR BIR YOSH DAVLAT E'TIBORIDA

**Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi boshqaruv apparatida Toshkent shahrida istiqomat qiladigan probatsiya ro'yxatida turadigan yoshlar hamda qo'mondonlikka birlashtirilgan 150 ta alohida ishlash talab etiladigan yosh uchun "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" doirasida profilaktik davra suhbatini tashkil etildi.**

Tadbirda Ichki ishlar vazirligi Toshkent shahri bosh boshqarmasi, Yunusobod tumani prokuraturasi rahbariyati, mahalliy hokimlik va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari ishtirok etib, yoshlar bilan ochiq va samimiy muloqot olib bordi. Uchrashuv davomida mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar, ta'lim va kasb-



hunar egallash, sport va madaniyat sohasidagi qulay shart-sharoitlar haqida atroflicha ma'lumotlar berildi.

Shu bilan birga, bugungi kunda ayrim yoshlar o'rtasida uchrayotgan salbiy holatlar, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish masalalari ham alohida muhokama qilindi. Mas'ullar yoshlarga hayotda to'g'ri yo'l tanlash, o'z kelajagini puxta

rejalashtirish va jamiyatda munosib o'rin egallash muhimligini tushuntirdi.

Tadbir samimiy va ochiq muloqot ruhida o'tdi. Yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi, orzu-maqсадlari va kelajak rejalari haqida fikr almashdi. Bu esa ularning ichki dunyosiga yaqinlashish, ishonchini qozonish va ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishda muhim omil bo'ldi.

Uchrashuv yakunida yoshlarning taklif va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda aniq rejalar belgilab olindi. Jumladan, ularni turli ta'lim va sport to'garaklariga jalb etish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli tashkillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha kelishuvlarga erishildi.



Islohotlar amalda



Muhimi, ushbu seminar orqali ishtirokchilar nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamladi, balki amaliy ko'nikmalarini ham boyitish imkoniga ega bo'ldi.

Mazmun-mohiyati, yondashuv jihatidan alohida ahamiyatga ega bo'lgan seminar "O'zbekiston - 2030" strategiyasi vazifalarini amalga oshirish doirasida o'tkazilib, kadrlar sohasida faoliyat yuritayotgan ofitserlarning ma'naviy-intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, harbiy islohotlar va yangi me'yoriy hujjatlarning asosiy talablarini yetkazish, sohadagi dolzarb muammolarni tahlil qilish orqali aniq taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hamda inson resurslari bilan ishlash bo'yicha ilg'or xorijiy va milliy tajribalar almashishni maqsad qildi.

Mudofaa vazirligi Kadrlar bosh boshqarmasi boshlig'i polkovnik Babur Xushvaktov ta'kidlaganidek, mazkur seminar ilk bor Markaziy harbiy okrug hamda Serjantlar tayyorlash oliy maktabi mezbonligida tashkil etilgani bilan ahamiyatlidir. Ayni jihat uni "Samarqand tajribasi" sifatida ilg'or o'quv-uslubiy model darajasiga ko'tardi. Ushbu yondashuv esa tarixiy muhit va zamonaviy bilimlar uyg'unligida kadrlar salohiyatini rivojlantirishning samarali namunasi sifatida namoyon bo'ldi.

Tadbirida ayniqsa bugungi kunda dunyodagi murakkab harbiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, IT va raqamli platformalar, sun'iy intellekt, robotlashtirilgan tizimlar hamda kiberxavfsizlik kabi yo'nalishlarda yangi mutaxassisliklarni joriy etish, harbiy xizmatga saralash tizimini



takomillashtirish, yangi qabul qilingan harbiy xizmatchilarning adaptatsiya jarayonlarini kuchaytirish, "Ustoz-shogird" an'anasini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shu bilan birga, joylarda barcha toifadagi harbiy xizmatchilar va xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi profilaktik choralarni kuchaytirish, halollik, adolat va xolislik tamoyillarini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi.

Qayd etish joizki, bugungi kunda Mudofaa vazirligi tizimida kadrlar bilan ishlash jarayonlari jadal raqamlashtirilmoqda. Jumladan, kadrlar va harbiy-kasbiy saralash tizimida elektron platformalar keng joriy etilmoqda. Harbiy xizmatga qabul qilish, oliy harbiy ta'lim muassasalariga nomzodlarni saralash jarayonlari test sinovlari va onlayn platformalar, jumladan "my.gov.uz" tizimi orqali inson omilining aralashuvvisiz, ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilmoqda.

Ilg'or xorijiy tajribalar asosida kadrlar zaxirasini elektron shaklda yuritish yo'lga

# "SAMARQAND TAJRIBASI" — KADRLAR SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA YANGI BOSQICH

Bugungi global beqarorlik sharoitida har qanday davlatning mudofaa qudrati, eng avvalo, uning malakali va zamonaviy fikrlaydigan kadrlariga bog'liq. Shu bois harbiy sohada inson resurslarini rivojlantirish, ularning bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu dolzarb vazifalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Serjantlar tayyorlash oliy maktabi bazasida "Kadrlar tizimini ilg'or tajribalar asosida rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusida Mudofaa vazirligi kadr organlari ofitserlari uchun o'quv-uslubiy seminar tashkil etildi.



Mazkur seminarning yana bir o'ziga xos jihati uning Samarqand shahrida tashkil etilganidir. Chunki bu kadr xodimlarining ma'naviyati va dunyoqarashini kengaytirish va ilg'or tajribalarni almashishga ham imkon yaratdi. Zero seminar ishtirokchilari madaniy tadbirlar doirasida



qo'yilgan bo'lib, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi bilan izchil hamkorlik olib borilmoqda.

Yangilik sifatida ilk bor ofitserlar faoliyatini baholashda eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari - KPI tizimi joriy etildi. Mazkur tizim xizmatchilar faoliyatini xolis baholash, ularni rag'batlantirish va umumiy boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Seminar doirasida Samarqand davlat universiteti, Axborot texnologiyalar universiteti hamda Din ishlari bo'yicha qo'mitaning Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi yetakchi mutaxassislari tomonidan xalqaro geosiyosiy vaziyat va tahdidlar, "O'zbekiston - 2030", "Raqamli O'zbekiston" strategiyalarining mazmun-mohiyati, kadr sohasini raqamlashtirish, harbiy jamoalarda psixologik muhit, personal bilan ishlashning zamonaviy metodlariga oid mashg'ulot va treninglar o'tkazildi.



Seminar dasturiga ko'ra, turli ko'rgazmali chiqishlar, amaliy mashg'ulotlar, "Zakovat" intellektual o'yini hamda "Eng faol ishtirokchi", "Eng ilg'or ma'ruzachi", "Eng yaxshi maqola muallifi", "Eng bilimdon harbiy bo'linma" kabi tanlovlar tashkil etildi. Tanlovlar doirasida o'tkazilgan zakovat o'yini, mashg'ulot va taqdimotlar, mutaxassislik bo'yicha testlar hamda maqolalar tahliliy yondashuv, mutaxassislik va pedagogik mahorat jihatidan baholandi.



shaharning tarixiy obidalariga tashrif buyurib, yurtimizning boy madaniy merosi bilan yaqindan tanishdi. Jumladan, Imom Buxoriy yodgorlik kompleksi, Registon maydoni va "Boqiy shahar" majmuasi ularda katta taassurot qoldirdi.

Seminar yakunida g'olib va sovrindorlar taqdirlandi, barcha ishtirokchilarga sertifikatlar topshirildi.

Muhimi, uslubiy seminar davomida bugungi kunning zamonaviy talablari, yangi bilim, ko'nikma va ilg'or tajribalardan kelib chiqib, kadr organlari ofitserlariga kelgusi istiqbol uchun ustuvor yo'nalishlar hamda asosiy vazifalar belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, "Samarqand tajribasi" sifatida e'tirof etilgan mazkur tadbir kadrlar tizimini yanada takomillashtirish, ofitserlarning professional va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, shuningdek harbiy boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham u ishtirokchilar uchun qiziqarli va samarali bo'ldi. Mana shu omillar sabab ushbu tajribani kelgusida boshqa harbiy okruglarda ham joriy etish taklifi kiritildi.

**Mayor Sharif SUYUNOV,**  
Kadrlar bosh boshqarmasi  
boshqarma boshlig'i o'rinbosari



Tarixiy o'zlik

# SOHIBQIRON MEROSI — MILLIY G'URUR TIMSOLI

*Amir Temur nomi o'zbek tarixida chuqur hurmat bilan tilga olinadi. U nafaqat yetuk harbiy strateg, balki dono siyosatchi, markazlashgan davlat asoschisi va boy ma'naviy meros egasi sifatida jahon tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Sohibqironning faoliyati bugungi kunda ham ilmiy izlanishlar, tarixiy tadqiqotlar va madaniy merosni o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi.*



XIV asrning murakkab siyosiy vaziyatida Temur o'zining qat'iy iroda, chuqur strategik tafakkuri va jasorati bilan markazlashgan kuchli davlatni barpo etishga muvaffaq bo'lgan. O'sha davrda hududlar o'rtasidagi nizolar va ichki kurashlar kuchaygan, shuning uchun Temurning siyosiy va harbiy mahorati o'z davrida noyob sanalgan.

## AMIR TEMUR SIYOSATI VA BOSHQARUV TIZIMI

Amir Temur boshqaruv tizimini mukammal qilgan, har bir sohaga tartib va intizom o'rnatgan. Soliq tizimi, hududiy nazorat va harbiy boshqaruv mexanizmlari aniq ishlashini ta'minlagan. Shu bilan birga, u adolatni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga alohida e'tibor qaratgan.

"Temur tuzuklari" asari Amir Temur siyosiy va boshqaruv falsafasini yorituvchi muhim manbadir. Unda davlat boshqaruvi, adolatni ta'minlash va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha keng fikrlar bayon etilgan. Bu hujjat bugungi kunda ham tarixshunoslik va siyosiy tahlil uchun asosiy manba sifatida qadrlanadi.

## HARBIY STRATEGIYA VA YURISHLAR

Amir Temurning harbiy strategiyasi alohida e'tiborga loyiqdir. U jang maydonida tezkor va aniq qarorlar qabul qilgan, dushman kuchlarini puxta o'rganib, mos taktika qo'llagan. Shu sababli uning yurishlari tarixda muhim o'rin tutadi. Temur qo'shinlari tezkor harakatlari va puxta rejalashtirilgan taktikalari bilan mashhur bo'lgan, bu esa Temur imperiyasining keng hududlarga ta'sirini mustahkamlashga yordam bergan.

Harbiy yurishlar nafaqat hududlarni kengaytirish, balki ichki barqarorlikni ta'minlash, davlatning kuchini namoyon etish va xalqaro siyosiy mavqeyini oshirishga xizmat qilgan. Shu tariqa Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki strategik fikrlaydigan davlat arbobi sifatida tarixda qoldi.

## ILM-FAN VA MADANIYATDAGI HISSASI

Sohibqiron faqat harbiy va siyosiy sohada emas, balki ilm-fan va madaniyat rivojiga

ham katta hissa qo'shgan. Samarqand uning davrida yirik ilmiy va madaniy markazga aylangan. Bu shahar me'moriy obidalar, madaniy majmualar va olimlarning faoliyat yuritishiga qulay sharoit yaratgan. Temuriylar davrida ilm-fan, adabiyot va san'at keng rivojlangan. Ko'plab olimlar va san'atkorlar yetishib chiqqan, natijada hududda madaniy uyg'onish yuzaga kelgan. Amir Temur bu jarayonlarni qo'llab-quvvatlagan va rag'batlantirgan. U madaniy merosni asrab-avaylash, ilmiy ishlanmalarni targ'ib qilish va san'atkorlarni himoya qilish orqali o'z davrining yuksak madaniy hayotini shakllantirgan. Samarqanddagi Registon majmui, Bibi-Xonim masjidi, Go'ri-Amir maqbarasi va boshqa obidalar Temuriylar davrining buyuk me'moriy yodgorliklari sifatida saqlanib qolgan. Bu obidalar nafaqat tarixiy, balki zamonaviy turizm va madaniyat markazlari sifatida ham ahamiyatga ega.

## AMIR TEMUR MEROSINING BUGUNGI AHAMIYATI

Bugungi kunda Amir Temur merosi mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. U yosh avlodni vatanparvarlik, jasorat va fidoyilik ruhida tarbiyalashda ibrat manbai bo'lib xizmat qiladi. Sohibqiron siymosi milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va milliy g'ururni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Tarixiy yodgorliklar, Temuriylar davrining me'moriy obidalari, ilmiy asarlar va madaniy meros bugungi kunda ham milliy qadriyatlarni saqlash va ularga hurmat ko'rsatish uchun poydevor bo'lmoqda. Shu bilan birga, Amir Temur merosi xalqaro maydonda O'zbekistonni tanitishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur merosi xalqimizning bebaho boyligi, milliy g'urur va ma'naviy kuch manbidir. Uning hayoti va faoliyati bugungi va kelajak avlodlar uchun ibrat maktabi bo'lib qoladi. Sohibqironning siyosiy, harbiy, ilmiy va madaniy merosi o'zbek xalqining tarixiy o'zligini anglash, milliy qadriyatlarni saqlash va taraqqiyot yo'lida ilhomlantirishda davom etadi. Shu sababli Amir Temur nafaqat tarixiy shaxs, balki butun millat uchun milliy g'urur timsolidir.

**Begali TURDIALIYEV,**  
Harbiy xavfsizlik va mudofaa  
universitetining Harbiy aviatsiya  
instituti o'qituvchisi



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Milliy g'urur



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

# MILLIY ARMIYANING "Ma'naviyat kodeksi"

**Amir Temur shaxsiyati nafaqat biz uchun, balki dunyo uchun ham hamon sirli va hayratlanarli bo'lib qolmoqda. Mislsiz janglarda mag'lubiyat nima ekanini bilmagan sarkardaning tashqi ko'rinishi hamma qatori shaxsan meni ham juda qiziqtiradi.**

Bilamiz, u haqda zamondoshlari Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Ibn Arabshoh bitiklarida yozib qoldirgan. Sizga Amir Temurning eng yaqin zamondoshlaridan biri Ibn Arabshoh sohibqironning tashqi qiyofasi haqidagi tasvirlarini keltiray:

**"Temur baland bo'lyli, qadimiy pahlavonlarday ulkan qomatli, yelkalari keng, boshi shernikiday katta, barmoqlari yo'g'on, oq-u qizil tiniq yuzli, yo'g'on ovoqli, ikki ko'zi bamisoli ikki yoniq shamday olovli, badani toshday qattiq, chayir, o'limdan qo'rqmaydigan iztirobsiz, vazmin odam edi".**

Chindan ham doim lashkarlari bilan baravar jangga kiradigan qo'mondon bundan ortiq sifatlarga ega bo'lsa bo'ladiki, kam bo'lmaydi.

Bugun sizlarga tarixga qiziqqan olim sifatida emas, balki milliy armiyamizdagi so'nggi 5-10 yillik o'zgarishlarni kuzatib borayotgan shaxs sifatida ayrim mulohazalarimni bildirmoqchiman. Bu davr mobaynida amalga oshirilayotgan islohotlarga nazar tashlar ekanimiz, ularda Amir Temur saltanatidagi harbiy boshqaruv va tartib-tamoyillari ma'lum ma'noda singdirilib borayotganini ko'rish mumkin.

Bilamiz, sohibqiron og'ir va talafotli janglarda ko'p bor jarohat olgan va

ba'zan tushkun kayfiyatda bo'lgan paytlari ham bisyor bo'lgan. O'shanda ruhiyatni ko'tarish masalasi jangda qanchalik muhim ekanini ich-ichidan his qilgani tabiiy. Tarixchi olim Natanziy o'z asarida Amir Temurning yaradorlik paytidagi ruhiy holatini juda haqqoniy va ta'sirli tasvirlagan:

**"Hazrati Sulton G'oziy (Amir Temur) Garmsirdagi qishloqda ikki oy majruh va ma'yus holda qolgan edi. Bir kun u bir devorning soyasida o'ltirganda o'zicha o'yladi: "Talab yo'lining ibtidosidayoq bir qo'l, bir oyoqdan judo bo'ldim. Ammo ko'zlangan murodlardan birortasi hosil bo'lmadi. Endi qanoat va faqirlik go'shasiga chekinib, o'zimni qirg'in urush va olishuvlardan xalos etganim ma'qulmikan?"**

Shu asnoda bir zaif chumoli devor tepasiga tarmashib chiqqa boshladi. U bir necha bor urinib, devorning o'rtasigacha chiqqanda qulab tushar, yana qayta tarmashib, yuqoriroq ko'tarilardi. Nihoyat, chumoli devor tepasiga chiqdi.

Sulton G'oziy chumolining yuqoriga intilishlari o'zining holatiga juda o'xshashligini mushohada qildi va dilida saodatli maqsadga erishish mumkinligiga umid uyg'ondi. Bu hol uning muborak tanasi sihat topishiga ham sabab bo'ldi".

Xabaringiz bor, 2018-yilda **"Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"**gi Prezident qarori qabul qilingan edi. Unda brigadalar, harbiy qismlar va alohida batalyonlarda

"harbiy psixolog" (ofitser) lavozimi joriy etildi. Hozir har bir harbiy qismda zamonaviy talablar asosida jihozlangan ruhiy stressni yechish, jangovarlikni tiklash xonalari bor.

Amir Temurdan o'rganadigan yana bir muhim jihatomiz bor edi. Bu ham bo'lsa armiyaga ziyoli qatlamni yanada yaqinlashtirish masalasi. Sohibqironning bu boradagi tashabbuslari haqida zamondoshlari shunday yozadi:

**"Temur olimlarga mehribon, sayyid-u shariflarni o'ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to'la izzat-hurmat ko'rsatib, ularni boshqalardan afzalroq ko'rardi. Ularning har birini o'ziga munosib martabaga qo'yib, izzat-u ikromini izhor qilardi".**

Bu haqda sarkarda "Tuzuklar"da ham aytib o'tadi:

**"Sayyidlar, ulamo, shayxlar va fozillarni o'zimga yaqinlashtirdim. Ular mening saroyimga doimo kelib-ketib, majlislarimni bezab turardi. Diniy, huquqiy, aqliy masalalarni o'rta tashlab, qimmatli fikrlar bildirishardi. Halol va haromga oid masalalarni men ulardan o'rganardim".**

Prezidentimiz tashabbuslari bilan tuzilgan **Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi** faoliyati, turli ilmiy va ijodiy tashkilotlar bilan imzolanayotgan memorandumlar ham bugun Amir Temur joriy etgan o'sha an'ananing uzviy davomi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Xabaringiz bor, 2020-yilda dunyo ahli tojkor virus sabab og'ir, sinovli vaziyatlarni boshdan kechirdi. Ana shu kezlarda milliy armiya, chin ma'noda, xalqimizga ko'makchi bo'la oldi. Vazirlik tashabbusi bilan yuzlab xonadonlar obodonlashtirildi, qaytadan ta'mirlandi, eng muhimi, juda ko'p manzillar jonkuyar harbiy xizmatchilarimizning mehnati va matonati bilan obod qilindi. Bunday tashabbuslar bugungi kungacha davom etib, aslo susaygani yo'q.

Eng e'tiborlisi, bunday islohotlar Amir Temur davrida ham amalda bo'lgan va keng miqyosda olib borilgan. "Temur tuzuklari"da bu haqda shunday deyiladi:

**"Yana amr qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga yangi ko'priklar solsinlar, yo'l ustida har manzilgohga rabotlar bunyod etsinlar.**

Har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqir-u miskinlarga taom beriladigan langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxonalar qursinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar".

Jumlalarga e'tibor bersangiz, shifoxonalar qursinlar, deyiylapti. Hammamiz yaxshi bilamiz, **Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik hospitali** nafaqat harbiy xizmatchilarga, balki aholiga ham tun-u kun xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Men Amir Temur fenomenini o'tmish va kelajagimizni bog'lovchi ma'naviy ko'priklar sifatida ko'raman.



Xususan, Mudofaa vazirligida 2021-yildan buyon yo'lga qo'yilgan **"Amir Temur jangovar bayrog'i"** musobaqasi fikrimning yorqin dalilidir. Harbiy okruglar o'rtasida eng yuqori natija ko'rsatgan jamoalarni mazkur sharaflı bayroq bilan taqdirlash qo'shinlarimizda nafaqat sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi, balki harbiy xizmatchilarimizning ma'naviy-jangovar tayyorgarligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Darhaqiqat, "Amir Temur jangovar bayrog'i" bugungi kunda tom ma'noda jasorat, sadoqat va mas'uliyat ramziga aylandi, desam, to'g'ri bo'ladi.**

Shu o'rinda yana bir jihatga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Qo'shinlarda ma'naviy-jangovar salohiyatni yanada kuchaytirishni yangicha tashkil etish maqsadida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganganimizda, ular foydalanayotgan usullar aslida bundan olti asr oldin buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz tomonidan qo'shinlarning ma'naviy va jangovar ruhini ko'tarishda faol qo'llangani va sinovdan o'tgani ma'lum bo'ldi. Sohibqiron bobomiz harbiy qo'shinning yengilmasligini ta'minlaydigan asosiy fazilatlar sifatida **azmi qat'iylik, tadbirlilik, hushyorlik, mardlik va shijoatni** sanab o'tgan va navkarlaridagi bu fazilatlar juda qadrlagan. "Temur tuzuklari" asarida **"Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir"**, deb qat'iy ta'kidlangani buning yaqqol dalilidir.

Shu bois Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 21-fevral kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Amir Temur g'oyalari asoslangan **"Kuchli ma'naviyatli harbiy xizmatchi modeli"**ni yaratish talabini qo'ydi.

Prezident topshirig'i ijrosi doirasida mudofaa vazirining vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi bo'limi tomonidan qo'shinlarda har tomonlama tayyorgarlikka ega, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immuniteti kuchli, majburiyatlarni sadoqat bilan va vijdonan bajarishga qodir harbiy xizmatchilarni tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida **"Kuchli ma'naviyatli harbiy xizmatchi modeli"** ishlab chiqildi va mudofaa vazirining 2025-yil 15-apreldagi tegishli buyrug'i bilan tasdiqlanib, amaliyotga joriy etishga kirishildi. Mazkur modelni ishlab chiqishda sohibqiron Amir Temur bobomizning betakror o'g'itlari asos qilib olindi.

Ma'lumki, Amir Temur armiyasining qudrati faqat son yoki qurol-yarog'da emas, balki **"qat'iy tartib va adolatda"** edi. Uning **"Kuch adolatdadir"** degan tamoyili har bir askar va qo'mondonning qalbiga singdirilgan edi.

"Temur tuzuklari"ga ko'ra, askarning xatosi uchun jazo muqarrar bo'lgan, ammo uning jasorati va sadoqati munosib taqdirlangan.



Sohibqiron **"Bir kunlik tadbir ko'p yillik besamar mehnatdan afzal"** deb hisoblagan. Bugungi zamonaviy janglarda ham strategik fikrlash va vaziyatni to'g'ri baholash birinchi o'rinda turadi.

**Milliy armiyamizning ma'naviy tayanchi sifatida Amir Temurning quyidagi fazilatlarini alohida ta'kidlash lozim.**

**Mardlik va jasorat:** Amir Temur hech qachon o'z askarlarini xavfli vaziyatda qoldirmagan, doimo oldingi saflarda bo'lgan.

**Vatanga sadoqat:** u Turon zaminini birlashtirib, uni dunyoning eng qudratli davlatiga aylantirishni o'z hayotining mazmuni deb bilgan.

**Milliy g'urur:** u **"Biz kim - maliki Turon (e'tibor bering - "mulki Turon" emas, "maliki Turon" - Turonning egasi, podshohi), Amiri Turkistonmiz! Biz kim millatlarning eng ulug'i, eng qadimi - Turkning bosh bo'g'inimiz!"** deya o'zlikni anglash va millat sha'nini himoya qilishni oliy maqsad sifatida belgilagan.

Manbalarda qayd etilishicha, Temur armiyasida yosh jangchilar ishtirokida doimiy mashqlar o'tkazilgan, ular issiq-sovuqqa chidamli, tog' va cho'lda birdek harakat qila oladigan darajada tarbiya qilingan. Natijada uning qo'shini turli tabiiy sharoitda ham o'z intizomi va jangovar salohiyati bilan g'alaba qozona oldi.

Ayniqsa, nishonni bexato uruvchi merganlar qo'shinining asosiy kuchlaridan biri bo'lgani shubhasiz. Garchi "snayper" atamasi o'sha davrda mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, Temur qo'shinidagi bunday jangchilarning vazifalari zamonaviy snayperlar faoliyatiga juda yaqin bo'lgan. Ular dushman safiga aniq zarba berish, muhim nishonlarni yo'qotish va jangning umumiy taqdiriga ta'sir ko'rsatish kabi vazifalarni bajargan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafamoma" asarida qayd etilishicha, Temur har bir jangchidan kamondan otishda qat'iy mashq va intizomli bo'lish talabini qo'ygan. **Bunday jangchilar jang maydonida strategik ustunlikni ta'minlab, kutilmagan hujumlarda hal qiluvchi rol o'ynagan. Ular dushmanning eng muhim kuchlarini yo'qotish orqali umumiy g'alabaga katta hissa qo'shgan.**

Bugungi kunda ham O'zbekiston armiyasida merganlar tayyorgarligi va harbiy mashg'ulotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki bu sohada jismoniy bardosh, chuqur nazariy bilim, aniq otish mahorati bilan birga ruhiy barqarorlik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayni shu jihatlarda o'zbek harbiylari xalqaro miqyosda tengsiz darajadagi mahorati bilan yurtimiz armiyasining yuksak salohiyatini namoyon etmoqda.

Bunga yaqqol misol sifatida 2025-yilning 21-26-sentabr kunlari Koreya Respublikasining Kongvando provinsiyasi, Inje shahrida o'tkazilgan **Xalqaro ilmiy-jangovar tayyorgarlik musobaqasi** hamda joriy yilning 16-18-mart kunlari AQShning Missisipi shtati "Camp Shelby" harbiy-o'quv bazasida bo'lib o'tgan **"Eng ilg'or jangchi -2026"** musobaqasida o'zbekistonlik harbiylarning muvaffaqiyatli ishtirokini keltirib o'tishimiz joiz. Koreya Respublikasining Inje shahrida o'tkazilgan nufuzli bellashuvda Koreya, O'zbekiston, AQSh, Yangi Zelandiya, Kambodja davlatlari hamda NATO qo'shma guruhidan jami 16 ta jamoa va 500 ga yaqin harbiy xizmatchi ishtirok etdi.

Quvonarlisi, musobaqada O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi jamoasi rekord natijalarni qayd etib, barchani hayratga soldi. Jumladan, harbiylarimiz shartli dushmanning zaxira va asosiy qo'mondonlik punktini qo'lga olish, mudofaada turib shartli dushmanni yo'q qilish mashqlarini yuqori aniqlikda bajarib, g'alabani qo'lga kiritdi.

**"Eng ilg'or jangchi - 2026"** musobaqasida esa harbiy xizmatchilarimiz AQSh Milliy gvardiyasining Maxsus bo'linmalari harbiy xizmatchilari bilan kuch sinashdi. E'tiborli jihati shundaki, mazkur bellashuvda harbiy xizmatchilarimiz nafaqat g'oliblikka erishdi, balki musobaqa rekordini ham yangiladi. Ta'kidlash joizki, mazkur musobaqada o'zbekistonlik harbiy xizmatchilar 2019-yildan beri muvaffaqiyatli qatnashib, har birida ishtirokchilardan mutlaq ustunlik bilan g'oliblikni qo'lga kiritib kelmoqda.

Bu, avvalo, Amir Temurning yovqur davomchilari hamon ulg'ayib borayotganini anglatrsa, ikkinchidan, O'zbekiston armiyasining xalqaro maydonda o'z nufuziga ega ekani, Vatanimiz qudrati va milliy armiyamizning yuqori salohiyati butun jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotganini namoyon etdi.

**Sohibqiron o'z askarlarini oddiy askar emas, balki tashabbuskor va kreativ fikrlaydigan jangchi sifatida tarbiyalashga alohida e'tibor berdi.** Shijoatli va jasur xizmatchilarga bo'lgan qat'iy talabi orqali armiyada jamoaviy kuch bilan birga shaxsiy mas'uliyat ham yuksaldi.

Natijada qo'shin tarkibida nafaqat intizomli, balki xatarli va keskin vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan, aql-zakovati bilan ham ajralib turadigan jangchilar shakllandi. Ya'ni askar nafaqat buyruqni bajargan, balki vaziyatni tahlil qiladigan, tashabbus ko'rsata oladigan, g'oyaviy jihatdan mustahkam shaxs sifatida kamol topgan.

Shu ma'noda Mudofaa vazirligi tizimida amalga oshirilayotgan **"Kuchli ma'naviyatli harbiy xizmatchi modeli" hamda "G'oyaviy jangchi"** konsepsiyalari ham ana shu an'ananing zamonaviy ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Unda har jihatdan universal, bilimli, ma'naviy barkamol va jasur harbiy xizmatchi siymosi yaratilib, milliy armiyaning yangi avlodi shakllanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur merosi bugungi O'zbekiston armiyasining "Ma'naviyat kodeksi"dir. Ushbu merosni chuqur o'rganish har bir Vatan himoyachisini o'z ajdodlariga munosib voris bo'lishga va Vatan oldidagi burchini sharaf bilan bajarishga undaydi. Milliy armiyamiz harbiy xizmatchilari sohibqiron bobomizning jasorati va donishmandligidan kuch olar ekan, yurtimiz sarhadlari hamisha daxlsiz va xalqimiz tinchligi barqaror bo'lishiga ishonchimiz komil.

**Olimjon O'SAROV,**  
mudofaa vazirining  
vatanparvarlik targ'iboti,  
ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda  
yoshlar masalalari  
bo'yicha maslahatchisi

Chegara qo'shinlarida

# Amir Temur IZDOSHLARI

Buyuk davlat arbobi, II Renessans asoschisi sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini munosib nishonlash maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarida ilk marotaba komandirlar bo'g'inida "Amir Temur izdoshlari" harbiy-amaliy, sport va intellektual ko'rik-tanlovi tashkil etildi.

Olti oy davomida 3 bosqichda o'tkazilgan mazkur tanlovda mingdan ortiq harbiy xizmatchi ishtirok etib, ular orasidan 1 nafardan eng ilg'ori yakuniy bosqichga yetib keldi.

Poytaxtimizda tashkil etilgan final bosqichning dastlabki kuni buyuk sohibqiron xotirasiga hurmat bajo keltirish tadbiri bilan boshlandi. Shundan so'ng tanlov shartlariga start berilib, ishtirokchilar nazariy bosqichlardan o'tish uchun DXX "Temurbeklar maktabi" tomon yo'l oldi.

Tanlovning birinchi, ya'ni savol-javob shartida ular o'zlari ixtiyoriy ravishda tanlagan Amir Temur hayoti va harbiy yurishlariga oid beshta savolga og'zaki hamda yozma ravishda javob berdi.

Ikkinchi shart sohibqiron shaxsiga oid ma'lumotlar hamda "Temur tuzuklari" tarixiy asari asosida tuzilgan test savollari orqali ishtirokchilarning bilim darajalarini sinovdan



o'tkazgan bo'lsa, uchinchi shart ijodiy yondashuv va nutqiy ravonlikni talab etib, qatnashchilar Amir Temurning harbiy yurishlari va jang san'ati xususida yozgan ijodiy ishlarini tanlov hay'atiga taqdim etib, og'zaki himoya qilib berishlari zarur bo'ldi. Ta'kidlash joizki, qatnashchilarning nazariy shartlardagi ishtiroklari temurshunos olimlar tomonidan yuqori baholandi.

Tanlovning so'nggi "Sardor mahorati" sharti esa ishtirokchilarning chavandozlik va merganlik qobiliyatini namoyon etdi. Milliy gvardiya chavandozlik majmuasida tashkil etilgan ushbu shart uch qismdan iborat bo'lib, unda ishtirokchilar chaqqonlik bilan xizmat otlarini egarlash va jangovar holatga keltirish jarayonlarini bajarish bilan birga otda 400 metr masofani qisqa vaqt ichida bosib o'tishi, shuningdek kamondan o'q uzish jarayonida o'zlariga berilgan imkoniyatdan unumli foydalanishlari lozim bo'ldi.

Hammaning diqqat markazida bo'lgan pichoq uloqtirish shartining natijalari ishtirokchilar tomonidan nishonga bexato urilgan pichoqlar soniga ko'ra aniqlandi. Ushbu shartdan ko'zlangan asosiy maqsad – jismonan sog'lom, ma'nan yetuk komandirlarni tayyorlash, ularning qo'l ostidagi shaxsiy tarkibga har jihatdan shaxsiy namuna bo'la olish xususiyatlarini shakllantirishdan iborat bo'ldi.

Uch kun davom etgan tadbirning madaniy hordiq chiqarish rejasiga ko'ra, ishtirokchilar poytaxtimizdagi Islom sivilizatsiyasi markazida bo'lib, tarix va zamonaviylikning o'zaro uyg'unlashuviga guvoh bo'ldilar.

Qizg'in hamda murosasiz bahslarga boy tarzda kechgan ko'rik-tanlov natijalari Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag'ishlab,

DXX Chegara qo'shinlari qo'mondonligida videoselektor shaklida o'tkazilgan ma'naviy tadbirida e'lon qilindi. Unga ko'ra, guruh komandirlari o'rtasida 1-o'rinni katta leytenant Rustam Tillayev egallagan bo'lsa, vzvod komandirlari o'rtasida kapitan-leytenant Suhrob Ahmedov hamda batalyon komandirlari o'rtasida podpolkovnik Asliddin Abdulkarimov tengsiz deb topildi. Podpolkovnik Qobiljon Po'latov erishgan natijalar esa harbiy qism komandirlari o'rtasida eng yuqori baholandi. G'oliblar maxsus diplom hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Bir so'z bilan aytganda, DXX Chegara qo'shinlari miqyosida o'tkazilgan ushbu ko'p bosqichli musobaqa komandirlik bo'g'inidagi harbiy xizmatchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish bilan birga ularning sohibqironga munosib izdosh ekanini amalda namoyon etish imkonini yaratgani bilan ham ahamiyatli bo'ldi.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari

## Inson qadri uchun

Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarga har yili yuzlab yangi uylar imtiyozli tarzda taqdim etiladi. Necha yuzlab xonadonlarda shukronalik dasturxonlari yoziladi – uy to'ylari qilinadi. Bu bejiz emas. Chunki inson hayotida oila uchun muhim sanalgan uy-joyning ahamiyati katta. Sharoiti mukammal shinam xonadonni kim orzu qilmaydi, deysiz. Buning uchun uzoq yillar mehnat qilib, jamg'arma yig'ishga to'g'ri keladi.



## YUZLARDA TABASSUM, tillarda shukronalik

Sharafli kasb egalari bo'lmish harbiy xizmatchilarga davlatimiz tomonidan har yili imtiyozli tarzda yangi uylar taqdim etilishi, Vatan himoyachilarining zahmatli xizmati e'tirofidir. Joriy yilda ham Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy qism va muassasalarda xizmat qilayotgan harbiy oilalarga zamonaviy uylar kaliti topshirildi. Keling, yangi xonadon egalaringiz xursandchiligiga sherik bo'lamiz.

### “OILAMIZ ORZUSI AMALGA OSHDI”

– Harbiy sohada xizmat qilayotganimga 19 yildan oshdi, – deydi II darajali serjant Odiljon Yo'ldoshev. – Oilamizga uy berilishini eshitib, turmush o'rtog'im va farzandlarim juda xursand bo'lishdi. Ayniqsa, ota-onamning boshi ko'kka yetdi. Xonadon kalitlarini topshirish jarayoni harbiy orkestr sadolari ostida tantanali bo'lib o'tdi. Men uchun quvonchli tomoni ushbu bayramona tadbirida ota-onam qatnashdi. Otam yoshi ulug' tabarruk insonlar qatorida tadbirning ochilish marosimi tasmasini kesishda ishtirok etdi. Inson shunday lahzalarda tanlagan kasbingdan, xizmatidanda mamnun bo'lasan, ko'ksingdagi iftixor tuyg'usi kuchingga kuch qo'shadi.

– Yangi uyga ko'chish oila bekalari uchun unutilmas onlar desa ham bo'ladi, – deydi Odiljonning rafiqasi Zuhroxon. – Ko'pdan buyon kutilayotgan oilamiz orzusi amalga oshdi. Bolalarimning quvonchini ko'rsangiz, edi. Keng va yorug' xonadon uchala farzandimizga juda yoqdi. Ota-onalarimiz quvonchli kunda yonimizda bo'lishdi, shukrona keltirib, duolar qildi.

Darhaqiqat, ota-ona uchun farzandlarining har bir yutug'i, erishgan muvaffaqiyati katta baxt. Rustamjon aka bilan Oyazimxon opa ham o'g'illarining uy olish marosimida ishtirok etdi. Yuzlarida tabassum bilan ezgu duolarga qo'l ochishdi.

– Ikki o'g'lim harbiy xizmatchi bo'lib, yurt tinchligini asrashga bel bog'ladi, – deya dilidagi faxr

tuyg'usini izhor etadi Rustamjon aka. – Katta o'g'lim Ilyosxon ham uzoq yillar harbiy sohada ishlab, iste'foga chiqdi. Unga ham davlatimiz tomonidan uch xonali uy berilgan. Xizmatning e'tirofi, rag'bat bundan ortiq bo'lmasa kerak. Buning uchun davlatimizga, Yurtboshimizga minnatdorlik bildiraman. Umid qilamanki, nabiralirim ham Vatan tinchligi va osoyishtaligini asrashga xizmat qiladigan o'tyurak insonlar qatorida bo'ladi.

### E'TIROF SHUKUHI

II darajali serjant Farhodjon Nabijonov yigirma yildan buyon Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi tasarrufidagi harbiy qismda xizmat qiladi. O'tgan yillar mobaynida uning fidoyi xizmati ko'p bora e'tirof topgan. 2020-yili “Jasorat” medali bilan taqdirlangan.

Sir emaski, tinchligimiz posbonlari yurtimizning turli go'shalarida xizmat qiladi. Oilalari bilan turli joylar, turli sharoitlarda istiqomat qilishga to'g'ri keladi. Farhodjon ham mana shunday sinovlarni yengib o'tgan harbiy xizmatchilardan. Davlatimiz tomonidan imtiyozli tarzda uch xonali uy berilishi oila uchun quvonchli yangilik bo'ldi, shubhasiz. Keling, Farhodjonning fikrini tinglaymiz:

– Inson kasbini sevsa barcha sinovlarga chidaydi, vazifasiga chin dildan yondashadi. Uning tanlagan sohasiga bo'lgan mehri oila a'zolarini ham befarq qoldirmaydi. Umr yo'ldoshim va farzandlarim qayerda xizmatda bo'lmay, hamisha yonimda bo'ldi, qanday sharoit bo'lmasin, chiroyli qabul qilishdi. Mana, sabr va harbiy kasbga bo'lgan mehr va sadoqat evaziga oilamizga zamonaviy yangi uy nasib qildi. Farzandlarning baxti, omadi ota-onaga quvonch bag'ishlaydi. Yangi uy xabarini, avvalo, ota-onalarimizga va yaqinlarimizga yetkazdik. Barchalari yetib kelishdi. Ularning duolari bilan yangi xonadonimiz nurga to'ldi, go'yo.


Yangi uyga erishishni oila bekalari ko'proq orzu qilishadi. Uni zamonaviy jihozlash, chiroyli

qilish borasida ham ko'proq bosh qotirishlari tayin. Negaki o'g'il-qizlarining har tomonlama qulay xonasi, yangi urfdagi mebellar bilan jihozlangan mehmonxona, oshxona



bo'lishi ularga ko'tarinki kayfiyat va g'ayrat bag'ishlaydi.

Mana shunday bekalardan biri, har qanday sharoitda ham oila muhitini chiroyli tutishga qodir Munisaxonni suhbatga tortamiz. Yaqin o'n yetti yildan buyon Farhodjonga yelkadosh



bo'lib kelayotgan, uch farzandni sog'lom va bilimdon voyaga yetkazayotgan Munisaxonning dil so'zlariga quloq tutamiz:

– Farzandlarimiz voyaga yetib qoldi, katta qizimiz sakkizinchi sinfda tahsil olyapti. Albatta, bolalar o'z xonasi bo'lishini istaydi. Shuning uchun yangi uyga ko'chganlarga havas qilardik. Mehmonlarni chiroyli xonalarda



kutib olishni istardik. Shu kuni intizorlik bilan kutdik. To'qqiz qavatli uydan xonadon berilishi, qur'a tashlash asosida tanlanishi aytilganida hayajon bilan yetib bordik. Dilimizda bir savol turardi: “Nechanchi qavat nasib etar ekan?!” Bu jarayonda



turmush o'rtog'im bilan o'g'lim ishtirok etdi. Qarangki, o'zimiz istagandek uchinchi qavatdan keng va yorug' xonalar nasib etdi. Beixtiyor xursandchilikdan “Qoyil, yashasin!” deya qichqirib yubordik. Shodligimizni ota-onamiz, yaqinlarimiz bilan baham ko'rishga shoshildik. Ayni damda yangi xonadonda maza qilib yashayapmiz. Harbiy oilalarga shunday zamonaviy uylarni taqdim etgan davlatimiz va Mudofaa vazirligi rahbariyatiga rahmat aytamiz.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bunday quvonchli damlarni necha yuzlab harbiy oilalarda kuzatish mumkin. Shuningdek, bu an'ana bardavom. Bir so'z bilan aytganda, harbiy oilalarda uy to'ylariga yozilajak shukronalik dasturxonlari bardavom bo'laversin.

**Zulfiya YUNUSOVA,**  
“Vatanparvar”

Ta'lim va tahlil



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

# HARBIY FAOLİYATDA

## raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi

Tinchlik va osoyishtalik – har qanday jamiyatning eng bebaho boyligi, eng ulug' ne'mati hisoblanadi. Osmon musaffo, yurt osuda bo'lgan zaminda inson qadri yuksaladi, taraqqiyot va farovonlik uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Tinch hayotning qadri esa, ayniqsa uning ne'matlaridan bahramand bo'lib yashagan inson uchun beqiyosdir. Shu bois uni asrash va mustahkamlash har bir davlat hamda jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ana shu muqaddas ne'matni ta'minlashda zamonaviy armiyalar va ularda qo'llanilayotgan ilg'or raqamli texnologiyalar muhim o'rin tutadi.

So'nggi yillarda globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan yangi xavf va tahdidlar harbiy sohada ham yangicha zamonaviy yondashuvlarni talab etyapti. Shu nuqtayi nazardan raqamli texnologiyalar harbiy sohada tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Ya'ni zamonaviy armiyalar jangovar samaradorlikni oshirish, operatsiyalarni tezkor va aniq boshqarish hamda inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirish maqsadida ilg'or texnologiyalarga tayana boshladi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt, uchuvchisiz uchish apparatlari, kiberxavfsizlik tizimlari, sun'iy yo'ldosh texnologiyalari va katta ma'lumotlar tahlili harbiy strategiya va taktikaning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, sun'iy intellekt, dronlar va kiberxavfsizlik tizimlarining rivojlanishi harbiy operatsiyalarni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Masalan, dronlar yordamida inson hayotini xavf ostiga qo'ymasdan razvedka olib borish yoki zarba berish imkoniyati yaratilgani harbiy sohada qo'llanilayotgan ilg'or raqamli texnologiyalar muhim o'rin tutadi.

biridir. Shuningdek, sun'iy yo'ldosh texnologiyalari orqali real vaqt rejimida ma'lumot olish va uni tahlil qilish imkoniyati qo'mondonlarga tez va aniq qaror qabul qilishda katta yordam bermoqda.

E'tibor beradigan bo'lsak, dunyoda kechayotgan ayrim harbiy-siyosiy ziddiyatlar ham raqamli texnologiyalarning ahamiyatini yaqqol namoyon etmoqda. Turli mintaqalarda kuzatilayotgan qurolli to'qnashuvlarda dronlar, razvedka sputniklari va kiberhujumlardan faol foydalanilayotgani zamonaviy urushlar xarakteri keskin o'zgarayotganini ko'rsatadi. Endi jangovar ustunlik nafaqat qurol-yarog' kuchiga, balki axborot va texnologiya ustunligiga ham bog'liq bo'lib bormoqda.

### ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA HARBIY USTUNLIK

Ma'lumki, zamonaviy armiyalarda qo'mondonlik va boshqaruv tizimlari to'liq raqamlashtirilgan. Bu esa real vaqt rejimida ma'lumot almashish va tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi. Masalan, ayrim rivojlangan davlatlarda

qo'llaniladigan C4ISR (*Command, Control, Communications, Computers, Intelligence, Surveillance and Reconnaissance*) tizimi jang maydonidagi vaziyatni tez baholash va samarali boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

Uchuvchisiz apparatlar (*dronlar*) ham xuddi shunday samarali texnologiyalardan biridir. Shuning uchun so'nggi yillarda dronlar harbiy operatsiyalarda keng qo'llanilmoqda. Ular razvedka, kuzatuv va zarba berish vazifalarini bajaradi. Masalan, MQ-9 Reaper kabi zamonaviy apparatlar uzoq masofadan turib nishonlarni aniqlash va yo'q qilish imkoniyatiga ega. Eng muhimi, dronlar inson hayotini xavf ostiga qo'ymasdan, murakkab hududlarda operatsiya o'tkazish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, sun'iy yo'ldosh va navigatsiya texnologiyalari haqida ham shunday fikrni aytish mumkin. Masalan, GPS orqali qo'shinlar joylashuvini aniqlash, qurol tizimlarini boshqarish va strategik rejalashtirish amalga oshiriladi. Sun'iy yo'ldosh orqali real vaqtda olinayotgan razvedka ma'lumotlari esa qo'mondonlikka tez va asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Ma'lumki, raqamli texnologiyalar rivoji bilan birga kiberxavfsizlik masalasi tobora dolzarblashmoqda. Bugungi kunda davlatlar o'z harbiy infratuzilmasini himoya qilish maqsadida maxsus kiberqo'shinlar tashkil etmoqda. Xo'sh, kiberurush strategiyasi qanday maqsadni ko'zlamoqda? U dushmanning aloqa tizimlarini izdan chiqarish, energetika infratuzilmasiga zarar yetkazish, axborot tizimlarini vayron qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, bu sohada tahdidlar ham kam emas. Agar harbiy tizimlar kiberhujumga uchrasa, bu jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois harbiy tizimlarni himoya qilish va kiberxavfsizlikni ta'minlash zamonaviy armiyalar oldidagi eng muhim vazifalardan biriga aylangan.

### SUN'IY INTELLEKT VA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI

Sun'iy intellekt harbiy sohada tahlil jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirmoqda. U razvedka ma'lumotlarini qayta ishlash, tahdidlarni prognoz qilish va avtomatlashtirilgan mudofaa tizimlarini yaratishda keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish imkoniyati qo'mondonlikka strategik qarorlarni yanada samarali qabul qilish imkonini beradi.

Mutaxassislar fikricha, kelajakda harbiy ustunlik an'anaviy qurol kuchidan ko'ra, ko'proq texnologik ustunlikka bog'liq bo'ladi. Shu sababli davlatlar innovatsiyalar va axborot texnologiyalariga katta e'tibor qaratishda davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar harbiy sohani tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy armiyalar uchun texnologik ustunlik strategik ustunlik bilan tenglashib bormoqda. Dronlar, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik va sun'iy yo'ldosh texnologiyalari kelajakdagi harbiy operatsiyalarning asosiy ustuni bo'lib qoladi. Shu bois bu texnologiyalarni to'g'ri, samarali va xavfsiz qo'llash har bir davlat uchun ustuvor vazifaga aylanmoqda.

**Podpolkovnik**  
**Usmonjon ASHUROV,**  
**Harbiy xavfsizlik va mudofaa**  
**universiteti katta o'qituvchisi**

E'tirof

# Avlod sadoqati: VATANGA BAG'ISHLANGAN UMR, davom etayotgan an'ana



Ba'zan inson hayotining yo'nalishini katta qarorlar emas, balki bolalikdagi beg'ubor lahzalar belgilab beradi. O'sha lahzalar yillar o'tsa-da, xotiradan o'chmaydi, aksincha insonning butun hayotiga ma'no baxsh etuvchi ichki yo'l ko'rsatkichga aylanadi. Dildora Boboyeva hayotida ham ana shunday unutilmas manzara bor. Bu – bobosining harbiy libosi bilan bog'liq oddiygina, ammo chuqur ma'noli xotira.

Tong sahar. Uyda tartib va intizom hukmron. Bobosi va atasining vazmin, qat'iy ovozi, kundalik vazifalarning aniq taqsimlanishi – bularning barchasi kichkina qizaloq qalbidan o'chmas iz qoldirdi. Bu oddiy oilaviy muhit emas – bu hayot maktabi edi.

U sekin javonni ochdi. Harbiy libos ko'zga tashlandi. Uni qo'lga olib, kiyib ko'rdi. Shu lahzada u o'zini boshqacha his qildi – go'yo ulg'ayib qolgan, zimmasida mas'uliyat bor insondek.

“Shu libosni kiyganimda qalbidamda faxr va g'urur uyg'ondi. Nimadir meni ichkaridan o'zgartirayotgandek tuyulardi”, deydi Dildora opa.

Bu bolalikdagi oddiy qiziqish emas. Bu – ajdodlardan meros bo'lib o'tgan sadoqatning ilk kurtagi edi.

## Oilada boshlangan tarbiya – umr yo'liga aylangan qadriyat

1976-yil 15-aprel. Samarqand viloyatining Paxtachi tumani. Ana shu maskanda Dildora Boboyeva dunyoga keldi. Ko'p farzandli oilada ulg'aygan – besh qiz va besh o'g'il orasida voyaga yetdi.

Ko'p farzandli oilalarda hayot boshqacha kechadi. Bu yerda har bir bola erta ulg'ayadi, mas'uliyatni erta his qiladi. Ammo bu oilani boshqalardan ajratib turadigan eng muhim jihati – bu yerda Vatanga haqida gapiriladi.

Bu uyda tinchlik oddiy so'z emas. U – qadrlil ne'mat edi. Urush esa kitoblardagi voqea emas, balki boboning xotirasida yashayotgan achchiq haqiqat edi. Dildora opaning bobosi urushni boshdan kechirgan inson edi. U jang maydonlarida chiniquqan, hayotning eng og'ir sinovlarini ko'rgan. Otasi esa front ortida xizmat qilib, halol mehnati bilan yurt ravnaqiga hissa qo'shgan.



“Ular bizga ko'p gapirishardi. Lekin eng ko'p aytgan gaplari – tinchlikning qadriga yetish kerakligi edi”, deydi Dildora opa.

Bu gaplar shunchaki nasihat emas. Bu – hayotiy haqiqat. Va bu haqiqat uning qalbiga chuqur singdi.

## Taqdir burilishi va ongli tanlov

Hayot o'z yo'lida davom etdi. Dildora opa bilim olishga intildi. Samarqand bank kollejida tahsil oldi, keyinchalik Samarqand davlat qishloq xo'jaligi institutida o'qidi.

U turli sohalarida o'zini sinab ko'rdi. Ammo qalbining tubida bolalikdagi o'sha his – harbiy hayotga bo'lgan mehr so'nmasdan yashab qoldi. Va bir kun kelib, taqdir uni yana o'sha yo'lga olib keldi.

U harbiy yigit bilan turmush qurdi. Bu oddiy oila qurish emas – bu mas'uliyatli, sharafli, ammo sinovlarga boy hayot yo'liga qadam qo'yish edi.

Harbiy hayot tashqaridan qaraganda jozibali ko'rinishi mumkin. Ammo uning ichki tomoni sabr, bardosh, qat'iyat va fidoyilikdan iborat.

Doimiy ko'chishlar, xizmat taqozosi bilan turli hududlarda istiqomat qilish, yangi muhitga moslashish – bularning barchasi harbiy oilaning kundalik hayoti.

“Ba'zida bir joyga endi ko'nikib ulguramiz, yana ko'chishga to'g'ri keladi. Ammo bu hayotning bir qismi”, deydi u. Va qo'shimcha qiladi: “Men buni hech qachon og'irlik deb bilmaganman. Aksincha, bu – mening hayotim, mening tanlovim”. Hozirgi kunda turmush o'rtog'i xaziradagi podpolkovnik Sherzod Janiyev.

## Ayol matonati – ko'zga ko'rinmas jasorat

Ko'pincha harbiylar haqida gapirganda, ularning jasorati, fidoyiligi tilga olinadi. Ammo ularning ortida turgan insonlar – ularning oilasi, ayniqsa turmush o'rtog'i haqida kam gapiriladi.

Aslida esa harbiy oiladagi ayol ham o'ziga xos jasorat egasidir. Dildora opa ham ana shunday ayollardan biri. U nafaqat turmush o'rtog'ining yonida bo'ldi, balki uning xizmat yo'lida ishonchli tayanchga aylandi.

“Harbiy bilan yashash – bu nafaqat faxr, balki sinov. Ammo bu sinov insonni chiniqtiradi”, deydi u.

U har bir qiyinchilikni sabr bilan qarshi oldi. Har bir yangi muhitga moslashdi. Har safar yangi hayotni boshlashga kuch topdi.

Bu ko'zga ko'rinmaydigan, ammo juda katta jasoratdir.

## Sulola davom etmoqda

Bu oilada Vatanga xizmat qilish – shunchaki kasb emas. Bu – an'ana.

Qaynakalari xaziradagi podpolkovnik O'tkir, Ulug'bek va Sherali Janiyevlar. Ukasi Nuriddin Boboyev ham harbiy xizmatni sharaf bilan ado etgan. Bugungi kunda esa bu yo'lni yangi avlod davom ettirmoqda.

Dildora opaning o'g'li leytenant sifatida xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, uning akasining o'g'illari ham turli viloyatlarda harbiy xizmatchi sifatida o'z burchini ado etmoqda.

Bu bir oilaning emas, balki butun boshli sulolaning Vatanga bag'ishlangan hayot yo'li. Bu yerda kasb emas, e'tiqod meros bo'lib o'tmoqda.

## Onalik baxti va Vatanga oldidagi burch

“Harbiyning onasi bo'lish – bu ikki karra mas'uliyat, ikki karra faxr”, deydi Dildora opa.

Onalikning o'zi katta baxt. Ammo farzandining Vatanga himoyachisi bo'lsa, bu baxt yanada yuksak ma'no kasb etadi. U o'g'larga qarab, o'tmish va bugunning uzviy bog'liqligini his qiladi. Bobodan otaga, otadan farzandga o'tgan yo'l davom etmoqda. Bu vaqt uzluksizligini, qadriyatlar davomiyligini ifodalaydi.

## Kasbidan baxt topgan inson

Bugungi kunda Dildora Boboyeva Markaziy harbiy okrug boshqaruv apparatida faoliyat yuritmoqda.

Bu uning bolalikdagi orzularining ro'yobi, hayot yo'lining mantiqiy yakuni emas, balki davomi. “Kasbidan baxt topganman”, deydi u. Bu oddiy jumla emas. Bu – insonning o'z yo'lini topganining isboti.

## Kengfe'llik – buyuklik belgisi

Hayot sinovsiz bo'lmaydi. Dildora opa ham ko'plab qiyinchiliklarni boshdan o'tkazdi. Ammo u hech qachon taslim bo'lmadi. Sabr, matonat, bag'rikenglik – uning hayotiy mezoniga aylandi. U mehribon ona, sadoqatli yor, oqila ayol sifatida nafaqat oilasida, balki jamiyatda ham hurmat qozongan. Kengfe'llik inson kechira oladigan, tushuna oladigan, sabr qila oladigan bo'ladi. Ana shunday fazilatlar esa jamiyatni mustahkamlaydi.

Bugungi globalashuv davrida Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlar, tinchlikning qadriyatlarini anglash har qachongidan ham muhim. Dildora Boboyevaning hayot yo'li esa ana shu qadriyatlarining yorqin ifodasidir. Uning hayoti bizga shuni anglatadi: Vatanga xizmat qilish, faqat jang maydonida emas. Bu – kundalik hayotda, oilada, farzand tarbiyasida, sabr va sadoqatda namoyon bo'ladi.

Bunday insonlar bor ekan, Vatanga mustahkam, tinchlik barqaror bo'ladi.

**Parvina ABDUHAMIDOVA,**  
Markaziy harbiy okrug  
matbuot xizmati  
bosh mutaxassisi

O'zbekiston chempionati

# YOSH MERGANLAR

## mahorati sinovdan o'tdi

Yurtimizda yoshlar sportini rivojlantirish, ularni jismonan sog'lom va ma'nan yetuk etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, texnik mahorat, diqqat va aniqlikni talab etuvchi o'q otish sportiga bo'lgan qiziqish yil sayin ortib bormoqda. Bu esa yangi iqtidorlarni kashf etish va ularni qo'llab-quvvatlashda muhim omil bo'lmoqda.

Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazining o'q otish sport bazasida O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi. O'zbekiston o'q otish federatsiyasi tashabbusi bilan o'tgan musobaqada pnevmatik quroldan o'q otish bo'yicha U-14, U-18 va U-21 yosh toifalaridagi o'g'il-qizlar ishtirok etib, g'oliblik uchun keskin va murosasiz kurash olib bordi.

Musobaqa yuqori saviyada tashkil etildi. Har bir chiqish, har bir natija xalqaro standartlarga muvofiq ravishda baholandi. Bu esa sportchilarga o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etish imkonini berdi.

Qayd etish joizki, musobaqada ishtirokchilar qamrovining kengayib borayotgani ushbu sport turiga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida aniqlik va sabr-toqatni talab qiluvchi ushbu sport turiga qiziqish yuqori ekani e'tiborlidir.

Musobaqa yakuniga ko'ra, turli yo'nalishlar bo'yicha quyidagi sportchilar g'oliblar qatoridan joy oldi:

### Pistoletdan 10 metrga o'q

#### otish:

- U-14 o'g'il bolalar – Ibrat Saydrasulov (Toshkent) 524;
- U-14 qizlar – Zamira Abdullayeva (Toshkent vil) 511;
- U-14 miks – Shohruza Turabekova va Ibrat Saydrasulov (Toshkent) 516;
- U-18 qizlar – Zinnat Ergasheva (Toshkent) 220.0;
- U-18 o'g'il bolalar – Rafet Kerimov (Namangan) 220.0;
- U-18 miks – Rafet Kerimov va Irina Tarasova (Namangan) 542;
- U-21 o'g'il bolalar – Sodiqjon Abdullayev (Namangan) 238.9
- U-21 qizlar – Durdona Ilhomjonova (Toshkent vil) 544;

● U-21 miks – Fazliddin Farhodov va Diana Abdumuminova (Toshkent viloyati) 545.

### Pistoletdan 50 metrga o'q otish:

● U-18 aralash – Nodirabegim Orifjonova (Farg'ona) 515.

### Vintovkadan 10 metrga o'q otish:

- U-14 o'g'il bolalar – Ilhomjon Tursunov (Toshkent) 600.1;
- U-14 qizlar – Sug'diyona Turgunova (Toshkent) 598.1;
- U-18 qizlar – Milena Xakimova (Toshkent) 245.5;
- U-18 o'g'il bolalar – Muhammadjon Anvarov (Toshkent vil) 246.2;

● U-18 miks – Nikita Sokolov va Milena Xakimova (Toshkent) 618.4;

● U-21 o'g'il bolalar – Javohir Sohibov (Toshkent vil) 248.6;

● U-21 qizlar – Ruhshona Abdualimova (Toshkent) 618.6;

● U-21 miks – Gulbonu Kambarbekova va Temurbek Shuhratov (Toshkent viloyati) 617.1.

### Vintovkadan 50 metrga o'q otish:

● U-18 individual – Nikita Sokolov (Toshkent) 611.0.

Chempionat yakunida g'olib va sovrindorlar tantanali ravishda diplom, medal hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Bu kabi musobaqalar nafaqat yosh sportchilarning mahoratini oshirish, balki ularni katta sportga tayyorlashda muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Sherzod SHARIPOV,  
"Vatanparvar"



Sport-bu avvalo tinchlik elchisi, har bir davlat uchun milliy g'urur manbai.

SHAVKAT ERIZOV

Qaror va ijro

## HARBIY XIZMATDAN MEHNAT MAYDONIGA

Mamlakatimizda yoshlarni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash va kasb-hunarga yo'naltirish davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, muddatli harbiy xizmatni sharafla ado etib qaytgan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi, ularning faol hayotga tez va samarali moslashuvini ta'minlash maqsadida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqdaki, bu e'tirofga sazovor.

Ana shu ezgu maqsadlardan kelib chiqib, Kasbi tumani mudofaa ishlari bo'limi hamkorligida chet elning nufuzli kompaniyalaridan biri hisoblangan "Indorama Agro" klasterida mavjud bo'sh ish o'rinlari bilan tanishtirishga qaratilgan amaliy tadbir tashkil etildi. Mazkur tadbir muddatli harbiy xizmatdan qaytgan yoshlar uchun muhim imkoniyat eshiklarini ochib berdi.

Tadbir davomida ishtirokchilar korxonada faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Xususan, ular paxta xomashyosini qayta ishlash jarayonlari, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, mahsulot sifatini ta'minlash bosqichlari hamda korxonada joriy etilgan ilg'or tajribalar haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'ldi. Mutaxassislar tomonidan berilgan tushunchalar yoshlarda ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan katta qiziqish uyg'otdi.

Uchrashuvning eng ahamiyatli jihatlaridan biri shunda bo'ldiki, yoshlar nazariy ma'lumotlar bilan cheklanib qolmay, ish jarayonlarini amaliy tarzda kuzatish imkoniga ham ega bo'ldi. Ular ishlab chiqarishning turli bosqichlarini bevosita ko'rib, mehnat jarayonining mazmun-mohiyatini chuqurroq



angladi. Bu esa yoshlarning kelajak kasbini tanlashda to'g'ri qaror qabul qilishlariga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadbir davomida yoshlarga korxonadagi mavjud bo'sh ish o'rinlari, ishga qabul qilish shartlari, mehnat sharoiti va imkoniyatlar haqida ham atroflicha ma'lumotlar berildi. Bu esa ularning bandligini ta'minlash, doimiy daromad manbaiga ega bo'lishlariga zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur tashabbusning asosiy maqsadi – muddatli harbiy xizmatdan qaytgan yoshlarni mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlash, ularni aniq kasb-hunarga yo'naltirish, ish bilan ta'minlash hamda ishlab chiqarish korxonalari bilan samarali hamkorlikni yanada mustahkamlashdan iboratdir.

Bunday amaliy tadbirlar yoshlar uchun nafaqat yangi ish o'rinlari bilan tanishish, balki o'z salohiyatini namoyon etish, mehnatga bo'lgan munosabatini shakllantirish va kelajakda mustaqil hayot yo'lini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ularda ishbilarmonlik ruhini uyg'otib, tadbirkorlik faoliyatiga qiziqishni oshirishga ham xizmat qiladi. Eng muhimi, Vatan himoyasida bo'lib qaytgan yoshlarning tinch hayotda ham faol, tashabbuskor va foydali insonlar bo'lib yetishishiga zamin yaratadi.

**Podpolkovnik Adiz NAVRO'ZOV,**  
**Kasbi tumani mudofaa**  
**ishlari bo'limi boshlig'i**

Sana

## 27 yillik sharaflı tarix

Sharqiy harbiy okrugning So'x garnizonida joylashgan harbiy qism tashkil etilganining 27 yilligi munosabati bilan tantanali tadbir o'tkazildi. Unda harbiy qism qo'mondonligi, mahalliy davlat hokimiyati vakillari, faxriy harbiylar ishtirok etdi.



Tadbir davomida so'zga chiqqanlar harbiy qismning 27 yillik faoliyati, bosib o'tgan sharaflı yo'li, erishilgan yutuqlari va to'plangan boy tajriba haqida atroflicha to'xtalishdi. Xususan, ushbu harbiy qismning mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlash, davlat chegaralarini ishonchli himoya qilish hamda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi xizmatlari yuksak baholandi.

Mazkur harbiy qism o'tgan davr mobaynida ko'plab sinovlardan munosib o'tib, murakkab va mas'uliyatli vazifalarni sharafla ado etib kelmoqda. U bugungi kunda chinakam matonat, jasorat va sadoqat maktabiga aylangan. Bu yerda xizmat qilgan har bir harbiy xizmatchi Vatanga sadoqat, harbiy burchga fidoyilik va xalq ishonchini oqlash kabi yuksak qadriyatlarini o'z faoliyatining ustuvor mezoniga aylantirgan.

Tadbir davomida harbiy qismda shakllangan mustahkam an'analar, jangovar tayyorgarlik va fidoyilik bugungi kunda ham izchil davom etayotgani ta'kidlandi. Shuningdek, har bir askar va ofitser zimmasidagi mas'uliyat yuksak ekani, ular Vatan himoyasi yo'lida sidqidildan xizmat qilishi zarurligi qayd etildi.

Tadbir doirasida xizmat vazifasini sidqidildan bajarayotgan, intizomi va namunali xulqi bilan barchaga o'mak bo'lib kelayotgan bir guruh harbiy xizmatchilar rag'batlantirildi.

Mazkur tadbir harbiy qismning sharaflı tarixini yodga olish bilan birga, uning kelajagi sari yangi marralar tomon ishonch bilan intilish ruhini yanada mustahkamladi.

**Gulihumo MAJIDOVA,**  
**Sharqiy harbiy**  
**okrug matbuot**  
**xizmati bosh mutaxassisi**

Musobaqa

## YOSHLAR QALBIDAGI ENG ULUG' TUYG'U

Baliqchi tumanidagi 35-sonli umumta'lim maktabida ta'lim muassasalari sektorlari kesimida g'olib bo'lgan "Vatan tayanchi" harbiy-vatanparvarlik harakati otryadi a'zolari o'rtasida "Vatanparvarlar" harbiy sport musobaqasining tuman bosqichi yuqori saviyada o'tkazildi.

Musobaqa yosh avlodni Vatanga muhabbat, milliy g'urur va fidoyilik ruhida tarbiyalash, ularning jismoniy tayyorgarligi va harbiy ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan muhim tadbirlardan biri sifatida ahamiyat kasb etdi. Unda jami 40 nafar o'quvchidan iborat 4 ta jamoa ishtirok etib, o'z bilim va mahoratlarini sinovdan o'tkazdi.

"Mohir mergan" shartida ishtirokchilarning nishonga aniq ura

olish qobiliyati, diqqat va sabr-toqati sinovdan o'tkazildi. Bu esa yoshlarda harbiy intizom va mas'uliyat hissini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. "Harbiylashgan estafeta" sharti esa jamoaviylik, tezkorlik va jismoniy chidamlilikni talab qildi.

"Jabrlanuvchiga birinchi yordam" sharti orqali ishtirokchilar favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, inson hayotini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan



amaliy bilim va ko'nikmalarini namoyon etdi. "Safda qo'shiq aytish" sharti esa ishtirokchilarning intizomi, birdek harakat qilishi va jamoaviy uyg'unligini ko'rsatdi. Ayniqsa, vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlar orqali yoshlar qalbidagi Vatanga bo'lgan muhabbat yanada mustahkamlandi. "Turnikka tortilish" sharti yoshlarning jismoniy

baquvvatligi va sog'lom turmush tarziga bo'lgan intilishini ko'rsatdi.

"Temur tuzuklari" bilimdoni" shartida ishtirokchilar tarixiy merosimizga bo'lgan hurmati va bilim darajasini namoyon etdi. Ushbu shart orqali o'quvchilar buyuk sarkarda Amir Temurning davlatchilik, adolat va harbiy san'atga oid g'oyalarini yanada chuqur anglash imkoniga ega bo'ldi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, 1-sektor jamoasi 1-o'rinni, 3-sektor 2-o'rinni, 4-sektor 3-o'rinni egalladi. G'olib jamoalar faxriy yorliq va diplomlar bilan taqdirlandi. Birinchi o'rinni qo'lga kiritgan jamoa viloyat bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritib, o'z tumani sharafini himoya qilish imkoniga ega bo'ldi.

**Abdunabi QAYUMOV**  
**Baliqchi tumani**

Sayohat

## MADANIYAT VA QADRIYAT UYG'UNLIGI

Bugungi kunda yoshlarni ma'naviy va ilmiy jihatdan kamol toptirishda tarixiy-madaniy maskanlarga tashrif buyurishning ahamiyati beqiyos. Ayniqsa, Islom sivilizatsiyasi markaziga amalga oshirilgan sayohat yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularning o'z tarixiga, diniga va qadriyatlariga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etilgan va Markaziy Osiyo mintaqasida yagona hisoblangan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida yoshlarimiz nafaqat ajdodlarimiz tomonidan barpo etilgan boy ilmiy meros, qadimiy qo'lyozmalar, nodir asarlar va tarixiy yodgorliklar bilan tanishdi, balki bu yerdagi eksponatlar orqali ular o'tmishda yashab o'tgan buyuk allomalarimizning ilm-fan rivojiga qo'shgan ulkan hissasini anglab yetdilar.

Sergeli tumani hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism qo'mondonligi tomonidan alohida ishlash talab etiladigan 120 nafar yosh O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrifi davomida mutaxassislar tomonidan berilgan qiziqarli ma'lumotlarni



tinglab, islom madaniyatining rivojlanish bosqichlari, ilmiy kashfiyotlar va tarixiy voqealar haqida chuqur bilimlarga ega bo'ldi. Ayniqsa, buyuk ajdodlarimizning falsafa, hadis ilmi, fiqh, matematika, astronomiya kabi sohalarida erishgan yutuqlari ularda faxr va iftixor tug'ularini uyg'otdi.

Bunday tashriflar yoshlarni nafaqat bilimni oshiradi, balki vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Ularni o'z ajdodlariga munosib bo'lishga, ilm o'rganishga va jamiyatga nafi tegadigan komil inson bo'lib kamolga yetishga undaydi. Xulosa qilib aytganda, Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif yoshlar uchun katta ma'naviy va marifiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Polkovnik Temur NARZULLAYEV

Ochiq muloqot

### NAMANGANLIK yoshlar bilan uchrashuv



"Yoshlar kuni" munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti raisi Husan Botirov namanganlik yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi.

Tashkilotning Uchqo'rg'on tumani o'quv sport-texnika markazida o'tkazilgan tadbirida H. Botirov yig'ilganlarga "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha tashkil etilgan seksiyalarda yaratilgan shart-sharoitlar, imtiyozlar to'g'risida to'liq ma'lumot berdi.

"Tashkilotda sport bilan shug'ullanayotgan yoki kasb-hunarga o'qitilayotgan har bir fuqaroning ongiga vatanparvarlik va mehnatga mas'uliyatli munosabat tuyg'ulari singdirib boriladi. Zero bular tashkilotimizning birinchi galdagi vazifalari hisoblanadi", dedi u.

Tashkilot o'quv muassasalarida yoshlar haydovchilik kasbidan tashqari vulkanizatorchi, elektrik-akkumulyatorchi, gaz-elektr payvandchi, avtochilangar, avtoelektrik kasblarini ham egallashlari, shuningdek "Avtokross", "Motokross", "Karting", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Raketamodel", "Aviamodel", "Kemamodel", "Radiosport" kabi seksiyalarda shug'ullanishlari mumkinligi aytib o'tildi. Muloqot davomida yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi. Ularga kelgusida sport bilan shug'ullanishlari va kasb-hunar egallashlari bo'yicha zarur tavsiyalar berildi.

Tadbir doirasida "Vatanparvar" tashkiloti Namangan viloyati kengashining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida yana bir muhim ish amalga oshirildi. Viloyat kengashi tasarrufidagi o'quv muassasalariga 42 ta yangi "Chevrolet Onix" avtomobili topshirildi. Endilikda ushbu o'quv avtomobillaridan avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida "B" toifasi bo'yicha o'qiyotgan fuqarolar amaliy mashg'ulotlarda foydalanadi.

Triatlon



### ENG EPCHIL DUATLON sportchilari aniqlandi



O'zbekiston triatlon federatsiyasi tomonidan Toshkent shahridagi "Yangi O'zbekiston" bog'i hududida bolalar va o'smirlar ishtirokida duatlon bo'yicha O'zbekiston chempionati musobaqasi o'tkazildi.

Unda mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan 136 ta sportchi 3 ta yosh toifasida g'oliblik uchun bahs olib bordi. Musobaqada O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining sportchilari o'zlarining anchayin chaqqon va bardoshli ekanliklarini namoyon etdi.

Musobaqa shartlariga ko'ra, 7-9 yoshdagi o'g'il va qizlar ikki marotaba 400 metr masofaga yugurdi va 3 kilometr masofaga velosipedda harakatlandi. 10-12 yoshdagi o'g'il va qizlar ikki marotaba 800 metr masofaga yugurib, 6 kilometr masofa bo'ylab velosipedda harakatlandi.

13-15 yoshdagi o'smir o'g'il va qizlar esa ikki marotaba 1 200 metr masofaga yugurib, 10 kilometr masofaga velosipedda marra sari harakatlandi.

Murosasiz kechgan chempionatda g'olib va sovrindorlar safidan joy olgan yoshlar tashkilotchilarning diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Karting

### POYTAXTLIKLAR G'ALABA QOZONDI



Uchqo'rg'on tumani O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan yoshlar o'rtasida sportning karting turi bo'yicha O'zbekiston ochiq chempionati o'tkazildi.



Mamlakatimizning turli hududlaridan hamda qo'shni Tojikiston Respublikasidan qatnashgan 60 dan ortiq sportchi belgilangan turli masofalarda "Mikro", "Mini", "KF-OK junior", "Super mini", "OK-KF", "Junior" (4 T), "Patriot" (4 T) va "KZ" sinflari bo'yicha karting sport mashinalarida bellashdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan ekstremal musobaqada umumjamoa hisobida 1-o'rinni Toshkent shahri jamoasi qo'lga kiritdi. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarga Namangan va Toshkent viloyati jamoalari sazovor bo'ldi.

G'oliblikni qo'lga kiritgan va yuqori o'rinlarni egallagan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining medal, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Jasorat maktabi

# YOSHLAR BILAN MULOQOT

Chirchiq shahrida joylashgan harbiy qismda o'tkazilgan "Jasorat maktabi" o'quv yig'ini doirasida "Qo'mondon va yoshlar" uchrashuvi tashkil etildi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularni qiziqtirgan harbiy sohada savollarga javob berish maqsadida Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni "Jasorat maktabi" o'quvchilari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda qo'mondon asosiy e'tiborni harbiy sohaga qiziqish bildirgan yigitlarga shart-sharoit yaratish, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni ilmga keng jalb qilish hamda intellektual salohiyati va tashabbusini qo'llab-quvvatlashga qaratdi. Tadbir davomida qo'mondon yoshlarni muntazam kitob o'qishga, ayniqsa, ilmiy va badiiy adabiyotlarga qiziqishni oshirishga chaqirdi.

Shuningdek, kitobxonlik insonning dunyoqarashini kengaytirishi, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishi va hayotda to'g'ri yo'l tanlashga yordam berishini ta'kidladi. Xususan,

o'g'lonlar milliy armiyamizdagi o'zgarishlar, mudofaa salohiyati, oliy harbiy ta'lim muassasalari hamda harbiy xizmatchilarimizning qo'lga kiritayotgan ulkan yutuq va marralari haqida qo'mondondan batafsil ma'lumot oldi.

Yakunda uchrashuvda faol ishtirok etgan bir guruh yoshlarga harbiy okrug qo'mondonligi esdalik sovg'alari topshirildi. Samimiy va ko'tarinki ruhda o'tgan tadbirda rahbarlar yoshlarni ulkan marralar sari ruhlantirib, har bir insonning o'z orzusi va maqsadi bo'lishi kerakligini, unga erishish uchun o'qib-izlanib, tinimsiz mehnat qilish zarurligini aytib, o'z nasihatlarini berdi.

Bunday muloqotlar nafaqat muammolarni hal etish, balki yoshlarning jamiyatdagi faolligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Toshkent harbiy okrugi  
matbuot xizmati



"Amir Temur oyligi"

## "TEMUR TUZUKLARI" bilimdoni

Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi hamda "Amir Temur oyligi" munosabati bilan harbiy prokuratura organlari tomonidan joylarda qator tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Shunday tadbirlar doirasida poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 289-sonli ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabida "Temur tuzuklari" bilimdoni tanlovi tashkil etildi.

Unda yuqori sinf o'quvchilaridan iborat 6 ta jamoa o'zaro bellashdi. Tanlov davomida ishtirokchilar "Temur tuzuklari" mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javob berib, o'z bilim va tafakkur darajalarini sinovdan o'tkazdi.

Bundan tashqari, ular Amir Temur bobomizning harbiy san'ati va boshqaruv mahorati haqidagi bilimlarini namoyish etdi.

Yakunda g'olib va sovrindorlar munosib taqdirlandi.

Adliya polkovnigi  
Shuhrat ZOIROV,  
Chirchiq harbiy  
prokurorining yordamchisi

Tibbiy ko'rik

Mamlakatimizda aholi barcha qatlamining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va amalda ta'minlash ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bu sohada prokuratura organlari tomonidan joylarda qator amaliy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

## INSON QADRI UCHUN

Shu kabi O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik hospitalining malakali shifokorlari ishtirokida poytaxtimizning Bektemir tumanida bepul chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etildi.

Iqbol mahallasida o'tgan tibbiy ko'rikda, shuningdek Abay mahallasi aholisi, jumladan nuroniylar, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar malakali tibbiyot mutaxassislari tekshiruvidan o'tdi.

Jarayonda shifokorlar tomonidan har bir fuqaroga zarur tibbiy tavsiyalar berib o'tildi.

Gulchehra TURSUNOVA,  
Bosh prokuratura  
boshqarma prokurori

Vatanparvarlik tadbirlari

## YANGI HAYOT VA KELAJAK SARI

"Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" shiori ostida hamda "Amir Temur oyligi" doirasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Maktabgacha va maktab ta'limi, Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari hamda Milliy gvardiya bilan hamkorlikda umumta'lim maktablarida vatanparvarlik tadbirlari o'tkazilmoqda.

Shunday tadbirlar "Yoshlar kuni"da poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 289-, 291- va 293-maktablar o'quvchilari va mahalla yoshlari ishtirokida tashkil etildi.

Tadbirlar ona Vatanimiz ramzi - davlatimiz madhiyasini jo'r bo'lib jonli ijro etishdan boshlandi. Dastlab ochiq muloqotlar o'tkazilib, so'z olganlar tomonidan mustaqillik ne'matlari, Yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun" amalga oshirilgan va jadal davom etayotgan keng qamrovli islohotlar, ulkan imkoniyat va yutuqlar, buyuk xalqimizning boy ma'naviy merosi, ulug' ajdodlarimiz, jumladan Amir Temurning vatanparvarligi, yuksak aql-idroki va harbiy salohiyati, el-yurt farovonligi va ravnaqi, ilm-ma'rifat va madaniyat rivoji yo'lidagi bemisl hissasi e'tirof etib o'tildi.

Inson kamolotida tinchlik, oila, mahalla va maktabning o'rni, yoshlarga yaratilgan keng imkoniyat va imtiyozlar hamda ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga doir konstitutsiyaviy kafolatlar haqida ma'lumot berildi.

Maktab o'quvchilarining badiiy chiqishi ham barchaga manzur bo'ldi. Harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari va Vatanni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlari, harbiy aslaha va texnikalar namoyishi esa yoshlardagi vatanparvarlik hissini hamda harbiy xizmatga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshirdi.

Adliya podpolkovnigi  
G'iyosiddin RAXMONOV,  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy  
prokurorining yordamchisi

Jarayon

Qarshi harbiy prokuraturasi tomonidan viloyat kuch tuzilmalari hamkorligida Nishon tumanidagi 1-sonli umumta'lim maktabida vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

## TADBIRLAR davom etmoqda

Unda harbiy xizmatchilar tomonidan ko'rgazmali chiqishlar hamda harbiy aslahalar namoyishi tashkil etildi.

Shuningdek, O'zbekiston yoshlar ittifoqining Qashqadaryo viloyati kengashi va kuch tuzilmalari hamkorligida "Ajdodlar izidan" intellektual o'yinining viloyat bosqichi yuqori saviyada tashkil etildi. Bellashuvda viloyatdagi barcha kuch tuzilmalari yoshlaridan iborat jamoalar faol ishtirok etib, o'z bilimlari, tafakkur va tezkor fikrlash qobiliyatlarini sinovdan o'tkazdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan bahslar yakuniga ko'ra, 1-o'ringa sazovor bo'lgan jamoa respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Bundan tashqari, Koson tumani favqulodda vaziyatlar bo'limida o'rganishlar olib borilib, unda bo'lim faoliyati, shu jumladan xizmat o'talishi ahvoli, shaxsiy tarkib va maxsus texnikalar shayligiga e'tibor qarotildi.

Jarayonda harbiy xizmatchilar bilan muloqot o'tkazilib, ularga qonunchilikdagi yangiliklar va ularning mazmun-mohiyati yetkazildi. So'ngra Koson tumani mudofaa ishlari bo'limida shaxsiy qabul tashkil etildi.

Adliya mayori  
Qurbondurdi POLVANNAZIROV,  
Qarshi harbiy prokurorining  
yordamchisi





Amir Temur tavalludining 690 yilligi

# Tarix va bugunni bog'lagan SHAXDAM QADAMLAR



**Erta tong... Baland binolardan mo'ralayotgan quyosh nurlari... Osmonning mayin oqarib borayotgan ranglari ostida poytaxt ko'chalarini chulg'ab olgan sokinlikni bir maromda tashlanayotgan qadamlar ovozi buzib yubordi. Bir safga turnadek tizilgan, yelkalari tik, nigohlari dadil bu harbiy xizmatchilar go'yo quyosh chiqishi bilan bir vaqtda uyg'ongan Vatanning o'ziga o'xshaydi — kuchli va g'ururli.**

Mana shunday manzara ostida, buyuk davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi munosabati bilan poytaxtimizda Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar harbiy bo'linmalarining tantanali piyoda yurish marosimi bo'lib o'tdi.

Poytaxtimiz ko'chalarida hamyurtlarimiz Vatan himoyachilarining shaxdam qadamlari bilan ijro etilgan jangovar qo'shiqlariga guvoh bo'lar ekan, namoyishkorona piyoda yurish sababli avtoqatnov tizimida yuz bergan noqulaylik, tirbandlik hech kimning asabini buzmedi. Aksincha, to'xtab turgan avtobuslar, avtomashinalardagi yo'lovchilar, o'qishga, ishga shoshayotgan odamlar shaxdam qadamlar bilan "Amir Temur xiyoboni" tomon harakatlanayotgan harbiy xizmatchilarni suratga olar, "Ofarin!", "Biz sizlar bilan faxrlanamiz!" deya olqishlardir.

Mazkur tantanali yurish O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti hududidan boshlanib, "Parkent" va "Mustaqillik" ko'chalarini bo'ylab belgilangan yo'nalish asosida harakatlandi.

Marosim davomida yurish tarkibining boshida ot ustida salobat bilan suzib borayotgan buyuk sarkarda — Amir Temur timsolini gavdalandirgan sarkarda qiyofasi barchaning diqqatini o'ziga tortdi. Gavdalandirilgan ushbu tarixiy obraz, go'yo asrlar silsilasidan chiqib kelib, bugungi kundagi Vatan posbonlari bilan bir safda yana bir bor yurt ravnaqi va tinchligi yo'lida qadam tashlayotgandek taassurot uyg'otdi. Shuningdek, Temur timsolining orqasida sarkardaning davlat bayrog'i baland ko'tarilib, tarixiy meros va zamonaviy harbiy salohiyatning uzviy uyg'unligi namoyon etildi.

Bundan tashqari, safda zamonaviy milliy armiyamiz harbiy xizmatchilari bilan bir qatorda XIV-XV asrlar harbiy libos va qurol-aslahalarda tarixiy jangchilarning obrazlari gavdalandirilgani o'sha davr harbiy an'analarini qayta tiriltirgandek bo'ldi. Bu esa marosimni kuzatib turgan ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Tantanali yurish "Amir Temur xiyoboni"dan Mustaqillik va Temiryo'l ko'chalarini bilan Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tomon davom etarkan, yo'nalish bo'ylab tadbirni kuzatayotgan tomoshabinlarning qiziqishi va olqishlari yurishga yanada tantanavor ruh bag'ishladi.

Ko'pchilik bolalar otalari yelkasida turib, harbiylarni quvonch bilan qo'llab-quvvatlar, yoshlar telefonlarini ko'tarib, har bir lahzani videotasvirga muhrlar, Vatan himoyachilarini havas bilan kuzatardi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu marosimda o'tmish va bugunning obrazlari bir vaqtda namoyon bo'lishi barchani o'ziga rom qildi: bir tomonda, zamonaviy aslahalar bilan qurollangan qat'iyat bilan qadam tashlayotgan harbiy xizmatchilar, ikkinchi tomonda, XIV-XV asr sarbozlarining tarixiy qiyofasi — bularning barchasi tomoshabinlarga Vatan himoyasi an'anasi uzilmas zanjirday davom etib kelayotganini yana bir bor namoyon etdi.

**Leytenant  
Mansurbek JABBOROV,  
"Vatanparvar"**



MUASSIS  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MUDOFAA VAZIRLIGI

## VATANPARVAR



### Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev  
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti — "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

### Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

### Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

**Navbatchi:** podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova

**Sahifalovchi:** Dilnoza Meliqo'ziyeva

**Musahhih:** Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-6107

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 33 878 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan  
tahririyati bilan bog'lanish  
uchun telegram bot



**BIZ HAQIMIZDA**

[www.mudofaa.uz](http://www.mudofaa.uz)

[t.me/mv\\_vatanparvar\\_uz](https://t.me/mv_vatanparvar_uz)  
[t.me/mudofaavazirligi](https://t.me/mudofaavazirligi)

[www.mv-vatanparvar.uz](http://www.mv-vatanparvar.uz)  
[vatanparvar-bt@umail.uz](mailto:vatanparvar-bt@umail.uz)

[mudofaavazirligi](https://www.facebook.com/mudofaavazirligi)

[mudofaavazirligi](https://www.instagram.com/mudofaavazirligi)

[www.youtube.com/c/UzArmiya](https://www.youtube.com/c/UzArmiya)